

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**MAGISTRATURA BO‘LIMI  
INGLIZ TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI**

**Qo‘lyozma huquqida  
UDK 413.164.**

**ERGASHEVA RA‘NO TURAYEVNA**

**ATIBUTIV TUZILMALARNING  
KOMMUNIKATIV - SEMANTIK TAHLILI**

*5A120102-Lingvistika*

**Magistr  
Akademik darajasini olish uchun yozilgan**

**D I S S E R T A T S I Y A**

Ilmiy rahbar: kat.o‘qt. R. Safarova

**QARSHI – 2015**

## MUNDARIJA

|                                                                                               |    |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| <b>Kirish</b> .....                                                                           | 3  |
| <b>I bob. Gap strukturasida atributiv birikmaning mavqesi</b> .....                           | 7  |
| 1.1 Gapning shakliy tuzilishida aniqlovchi unsurining ishtiroki.....                          | 7  |
| 1.2 Gapning sintaktik tuzilishi va atributiv munosabatning voqelanishi.....                   | 14 |
| I-bob yuzasidan qisqacha xulosalar.....                                                       | 22 |
| <br>                                                                                          |    |
| <b>II bob. Atributiv tuzilmalarning gap tarkibidagi struktur semantik xususiyatlari</b> ..... | 23 |
| 2.1. Aniqlanmishi ot bo‘lgan qurilmalarda aniqlovchining struktur – semantik o‘rni.....       | 24 |
| 2.2. Aniqlanmishi sifat bo‘lgan qurilmalarda aniqlovchining o‘rni.....                        | 44 |
| 2.3. Aniqlanmishi son bo‘lgan qurilmalarda aniqlovchining o‘rni.....                          | 48 |
| 2.4. Aniqlanmishi ravish bo‘lgan qurilmalarda aniqlovchining o‘rni.....                       | 50 |
| 2.5. Aniqlanmishi olmosh bo‘lgan qurilmalarda aniqlovchining o‘rni.....                       | 54 |
| II- bob yuzasidan qisqacha xulosalar.....                                                     | 56 |
| <b>III bob. Gapning mazmuniy tuzilishida atributiv unsurlarning o‘rni</b> .....               | 57 |
| 3.1. Belgi uzvli argumentlar.....                                                             | 57 |
| 3.2. Miqdor uzvli argumentlar.....                                                            | 65 |
| 3.3. Predmet uzvli argumentlar.....                                                           | 68 |
| 3.4. O‘rin uzvli argumentlar.....                                                             | 73 |
| 3.5. Payt uzvli argumentlar.....                                                              | 75 |
| 3.6. Ko‘rsatuvchi uzvli argumentlar.....                                                      | 77 |
| III- bob yuzasidan qisqacha xulosalar.....                                                    | 79 |
| <b>Umumiy xulosalar</b> .....                                                                 | 80 |
| <b>Adabiyotlar ro‘yxati</b> .....                                                             | 82 |

## Kirish

Ta'kidlansinki, O'zbekistonda mustaqillik yillarida ta'lim tizimining barcha turlarini, jumladan, oily malakali ilmiy va ilmiy pedagog kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish bo'yicha aniq maqsadli keng miqyosdagi ishlar amalgam oshirildi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Maktab ta'limini rivojlantirishning umummilliy davlat dasturini muvaffaqiyatli amalgam oshirish natijasida ta'lim jarayonining barcha bosqichlarini qamrab oluvchi, zamonaviy o'quv-laboratoriya uskunalari va kompyuter texnikasi bilan jihozlangan umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va oliy ta'lim muassasalaridan iborat yuqori talablarga javob beruvchi uzluksiz ta'limning yaxlit tizimi yaratildi. Shuning bilan birga, amaldagi oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o'tkazish tizimini Kadrlar tayyorlash milliy dasturi doirasida amalgam oshirilayotgan ta'lim tizimidagi o'zgarishlarning mantiqiy davomi sifatida tubdan isloh qilish obyektiv zaruriyati bugungi kunda yaqqol namoyon bo'ldi (Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o'tkazish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida 24.07.2012 O'zbekiston Prezidentining Farmoni).

**Mavzuning dolzarbligi:** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov: "...har bir ilmiy yangilik, yaratilgan kashfiyot – bu yangicha fikr va dunyoqarashga turtki beradi, ma'naviyatning shakllanishida o'ziga xos ta'sir o'tkazadi" (Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. T., 2008. b-41)-degan fikrlari fanning muhim muammolarini o'rganish, ilmiy yangilik yaratish ma'suliyatini yanada oshiradi. Bunday maqsad va vazifalarni amalga oshirishda boshqa fanlar kabi tilshunoslikning ham o'z o'rnini bor.

Atributiv tuzilmalar ishtirokidagi gapning struktur asosi hukmning struktur qismlariga qiyosan ega va kesim deb qaraladi. Ega va kesimga bog'lanib, uning mazmunini kengaytiruvchi bo'laklar sifatida aniqlovchi, to'ldiruvchi va hol belgilanadi. Gap bo'laklarini ajratishda o'zaro sintaktik munosabat asos qilib olinadi. Ana shu asosda gapning bo'laklari ikki darajaga: bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga bo'linadi.

Ammo bunday bo‘linishda gap shakliy tuzilishining ko‘p bosqichlilik tabiati yashirinib qoladi. Shu bilan birgalikda, atributiv tuzilmalarning struktur – semantik tuzilishiga doir o‘ziga xos xususiyat ochilmay qoladi. Shuning uchun ham keyingi davrlarda gapning shakliy va mazmuniy markazi sifatida kesim e’tirof etilmoqda. Gapning boshqa shakliy tuzilish birliklari esa kesimning valentliklarini to‘ldirishga qarab belgilana boshladi. Bu gap shakliy tuzilish birliklarining ko‘p bosqichli sintagmatik munosabatini belgilashga qulay imkoniyat yaratadi. Natijada kesimning bevosita bo‘sh o‘rinlarini to‘ldirib, bitta sintaktik pozitsiyani egallagan bo‘laklar bo‘linishining ikkinchi bosqichidagi bo‘laklar sifatida ajratila boshlandi. Ikkinchi bosqichda ajratiladigan bo‘laklarning o‘zi ichki uzvlar bilan kengayishi mumkinligi e’tirof etildi. Natijada gapning bo‘laklarini tuzilishiga ko‘ra sodda, murakkab va birikmali bo‘laklarga ajratish imkoniyati tug‘iladi. Birikmali bo‘laklar ichki sintaktik bo‘linish xususiyatiga ega bo‘lsa ham, bu bo‘linish faqat shu bo‘lak doirasida deb belgilashga huquq berdi. Aniqlovchilar ana shunday sharoitda gapning bo‘lagi yoki bo‘lakning bo‘lagi tarkibida turishi muammo bo‘lib qoldi. Bu esa mavzuning bugungi kun tilshunosligi uchun naqadar dolzarb ekanligini ko‘rsatadi.

**Maqsad va vazifalari:** Tadqiqot o‘z oldiga atributiv tuzilma ishtirok etayotgan gapning struktur – semantik tuzilishini an’anaviy ikki bosqichda emas, balki ko‘p bosqichda tadqiq etishni, sintaktik birikmalarning pog‘onaviy sintagmatik munosabatini yoritishni, aniqlovchining gapning emas, balki bo‘lakning bo‘lagi ekanligini ochib berishni asosiy maqsad qilib qo‘yadi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar tadqiqot oldiga qo‘yiladi:

- atributiv tuzilma ishtirokidagi gapning sintaktik (shakliy) tuzilishini shu gapning struktur va mazmuniy markazi sanalgan kesimning “bo‘sh o‘rin” lari va bu o‘rinlari to‘ldiruvchi birikmalarning sintaktik pozitsiyalari asosida talqin etish;

- ushbu gaplarning shakliy tuzilishi birliklarning ko‘p bosqichli sintaktik munosabatini ochib berish;

- gapning va bo‘lakning bo‘laklari mavjud ekanligini asoslash;

- aniqlovchining gap tuzilishidagi o‘rnini belgilash;

-atributiv tuzilmalarning shakliy va mazmuniy tuzilishini ajratish.

**Tadqiqotning obyekti va predmeti:** Badiiy va publisistik matnlarda uchraydigan nutqiy tuzilmalar tahlilidan iborat. Ingliz tilidagi matnlarda uchraydigan atributiv tuzilmalarning kommunikativ va semantik tadqiqi talqin qilinadi.

**Metod va metodologiyasi:** Tadqiqotning metodologik asosini O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "Ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish"hamda fan, ta'lim-tarbiya sohasidagi strategik yo'nalishlarga doir qarorlar, olamning obyektivligini va uzluksiz rivojlanishda ekanligini e'tirof etuvchi dialektik falsafa tashkil etadi. Ushbu tadqiqotlar uzviy tahlil, transformasiya, komponent, differensial, statistik tahlil, tavsiflash singari metodlardan foydalaniladi. Lingvistik eksperiment natijalarining ishonchliligi nazariy, amaliy, ensiklopedik asarlarda mavjudligi yoki informantlar fikrlari asosida isbotlanadi. (Jeanette Norden ph.doctor (Vanderbilt university), Stephen Nowicki master (Duke University)).

**Ishning ilmiy jihatdan yangiligi:** Dissertatsiyada quyidagi ilmiy yangiliklar qo'lga kiritildi:

-atributiv tuzilma ishtirokidagi gap shakliy tuzilishining ko'p bosqichli sintagmatik munosabatga ega ekanligi ochib berildi;

-atributiv tuzilma tabiati gap bo'laklari va bo'lakning bo'laklarini o'z ichiga olish isbotlandi;

-aniqlovchilarning gapning shakliy va mazmuniy tuzilishidagi o'rni belgilandi;

-aniqlovchi tuzilmalarning struktur tiplari aniqlandi.

**Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati:** Tadqiqot natijalari shu kungacha bo'lgan sintaktik nazariyadagi gapning sintaktik bo'linishi va atributiv tuzilmalar haqidagi nazariy qarashlarni boyitadi. Undan oliy va o'rta-maxsus ta'lim tizimidagi filologiya fakultetlari uchun qo'llanmalar tayyorlashda, maxsus kurslar uchun material sifatida foydalanish mumkin.

**Ishning tuzilishi va tarkibi:** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ish yuzasidan 2 ta maqola, 2 ta ma'ruza tezlari e'lon qilingan.

**Bajarilgan ishning asosiy natijalari:** ingliz tili leksikasidagi atributiv birikmalarning sintaktik-semantik va kommunikativ xususiyatlari o'rganildi.

**Xulosa va takliflarning qisqacha umumlashtirilgan ifodasi:** Bosh va ikkinchi darajali bo'laklar nazariyasidan farqli o'laroq uning rang-barang semantikasini ochib berishimiz ishning yangiligidir. An'anaviy grammatikadan farqi ham shunda. Mazkur ish natijalari va uning asosiy yo'nalishlari ilmiy-amaliy konferensiyalarda, ingliz tili va adabiyoti kafedrasining kengaytirilgan ilmiy seminarlarda bayon etildi.

## **I BOB. GAP STRUKTURASIDA ATRIBUTIV TUZILMANING MAVQESI**

### **1.1. GAPNING SHAKLIY TUZILISHIDA ANIQLOVCHI UNSURINING ISHTIROKI**

Til sistemasining ko'p sathliligi, yuqori sath birliklarining shakl va ma'no munosabatidan tashkil topgan nisbiy butunlik ekanligi, shu bilan birgalikda, har ikki tomon o'zining ichki tuzilish xususiyatiga ega ekanligi bugungi kunda deyarli tilshunoslar tomonidan e'tirof etildi.

Gapning shakliy tuzilishi an'anaviy tilshunoslikda juda uzoq davrlardan buyon gap bo'laklari rukni ostida o'rganib kelindi. B.S.Xrakovskiyning ta'kidlashicha, gap bo'laklari konsepsiyasi tilshunoslikda XX asr o'rtalarigacha gapning sintaktik tahlilida yetakchi rol o'ynagan bo'lsa ham, lekin bu konsepsiya tarafdorlari hech qachon bir umumiy g'oya ostida birlashgan emas. Shuning uchun ham o'tgan davr mobaynida gap bo'laklari masalasida xilma-xil g'oyalar olg'a tashlandi, turli-tuman yo'nalishlar maydonga keldi<sup>1</sup>.

Bunday xilma-xillik gap bo'laklarini darajalarga ajratishda ham, ikkinchi darajali bo'laklarning tasnif asoslarida ham ko'rinadi. Xususan, F.I.Buslayev ikkinchi darajali bo'laklarni ajratishda hokim bo'lakka bog'lanish usuliga (moslashuvchi bo'lak – aniqlovchi, boshqariluvchi bo'lak – to'ldiruvchi, bitishuvchi bo'lak – hol); A.A.Potebnya esa so'z turkumlari va ularning shakllariga (bosh kelishikdagi ot – ega, tushum kelishiklaridagi ot – to'ldiruvchi, shaxsli fe'llar vositasida ifodalanadigan bo'lak tobe yoki ikkinchi darajali kesim, ravishdan ifodilangan bo'lak – hol) asoslanadilar. Bu yo'nalishdagi olimlar bir so'zni ba'zan ikki xil gap bo'lagiga kiritadilar. Masalan, *Дым стоял столбам* gapida *столбам* bo'lagi Buslayev konsepsiyasida hol, Potebnya konsepsiyasida esa to'ldiruvchiga kiritiladi<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup> B.S.Xrakovskiy. Konsepsiya chlenov predlozheniya v russkom yazikoznanii XIX veka. «Grammaticheskaya konsepsii v yazikoznanii XIX veka» to'plami, L., 1985, s. 126

<sup>2</sup> Qarang: F.Nurmonov. Gap haqidagi sintaktik nazariyalar

A.A.Potebnya nazariyasida aniqlovchining moddiy va tobe belgi sifatida “aloqa usuli”ni, xususan, moslashuvni kiritishga majbur bo‘ldi. Natijada, aniqlovchi moslashuvchi ot sifatida ajratib, uni to‘ldiruvchi va egaga moslashmaydigan ot sifatida qarama-qarshi qo‘ydi<sup>3</sup>.

Har ikki yo‘nalishda ham gapni bo‘laklarga ajratishda izchillik yetishmasligi tufayli ularga nisbatan bir qator e‘tirozlarning tug‘ilishiga sababchi bo‘ldi. Xususan, L.Shcherba 1963 yilda Tilshunoslik institutida “Gapning ikkinchi darajali bo‘laklari haqida” mavzusida qilgan ma‘ruzasida A.A.Potebnya qarashlarining ham, F.I.Buslayev qarashlarining ham na amaliy, na nazariy jihatdan bilish jarayoni uchun ahamiyati yo‘qligini, faqat morfologiya yoki sintaksis tushunchalari bilan tavgologiya ekanligini qattiq tanqid qiladi<sup>4</sup>.

Gap bo‘laklari nazariyasidagi bunday kelishmovchiliklardan zerikkan G.A.Zolotova hatto gap bo‘laklari tushunchasidan voz kechish, gapning sintaktik tuzilishini gap bo‘laklari rukni asosida emas, balki boshqacha o‘rganishni tavsiya etadi<sup>5</sup>.

Shunday qilib, gap bo‘laklari nazariyasi paydo bo‘lgandan buyon bu haqdagi bahs-munozaralar to‘xtagan emas.

Ana shu munozaralar tufayli gapning sintaktik tuzilishini o‘rganishda ikki yo‘nalish maydonga keldi:

1)gapning sintaktik tuzilishini gap bo‘laklari rukni ostida o‘rganish tarafdorlari; 2) gap bo‘laklari ruknini inkor etuvchilar (Shvedova Y.S., Zolotova G.A).

Birinchi yo‘nalish tarafdorlari garchi gapni bo‘laklarga ajratishda xilma-xil tamoyilga asoslanib, turli xil natijalarga erishgan bo‘lsalar ham, lekin ularning hammasi gap bo‘laklari sirasiga kiritilishi mumkin ekanligini belgilashda birlashadilar. Ularning barchasi gapni bo‘laklarga ajratishning

---

<sup>3</sup> Bu haqda batafsil ma‘lumot olish uchun qarang: Rahimov A. Umumiy tilshunoslik. – Samarqand, 2015

<sup>4</sup> Shcherba L.V. Izbranniye raboti po yazikoznaniyu i fonetike. M. 1958. S. 94.

<sup>5</sup> Zolotova G.A. Kommunikativniye aspekti russkogo sintaksisa. M. 1982. S. 27

bosh tamoyili gap uzvlarining o‘zaro tobelashish (dominatsiya) munosabati ekanligini e’tirof etadilar. Bunday munosabatga kirishmagan gap uzvlari esa gap bo‘laklari ruknidan tashqarida qoladi. O‘zaro tobe munosabatda bo‘lgan birliklarning tobe vaziyati gap bo‘laklarini tayinlashga imkon beradi. Lekin ana shu vaziyatni aniqlash, gap bo‘laklarini egallagan vaziyatlarga qarab darajalarga bo‘lishda xilma-xillik vujudga keldi.

Avvalo, gap bo‘laklarini ikkita daraja bilan cheklab qo‘yish, bosh bo‘laklarni tayinlash, ikkinchi darajali bo‘laklarning gap tuzilishidagi o‘rnini belgilash masalasida hamon turlicha qarashlar davom etmoqda. Bunday turli-tuman qarashlarning negizida qaysi bo‘laklarni bosh bo‘lak deb hisoblash, ikkinchi darajali bo‘laklarni belgilashda nimaga tayanish lozimligi masalasi yotadi.

Bosh bo‘laklarni belgilashda ega va kesimni gapning mazmuniy va grammatik markazlari sifatida har ikkisini bosh bo‘lak tirtibiga kirishuvchi ikki cho‘qqili an’anaviy qarash va L.Tenyer asos solgan faqat kesimni mazmuniy va grammatik markaz sifatida qarovchi yangi yo‘nalish maydonga keldi (Bu ikki qarash haqida keyinchalik alohida fikr yuritiladi).

Ikki cho‘qqili nazariyada ega bilan kesim har qanday gapning predikativ markazi, mazmuniy va grammatik tayanch nuqtasi, boshqa bo‘laklar esa shu ikki bo‘lakka grammatik va mazmuniy bog‘lanib, ularga nisbatan tobe vaziyatda turuvchi bo‘laklar sanaladi. Shuning uchun ular ikkinchi darajali bo‘laklar hisoblanadi.

Ingliz tilshunosligida ilk bor O.Yespersen tomonidan aniqlovchi va aniqlovchi tuzilmalar monografik tadqiq etildi. Muallif ingliz tilining o‘ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, uning gap bo‘lagi ekanligini ta’kidlaydi va uchta turi mavjud ekanligini bayon qiladi<sup>6</sup>. Gapning tarkibidan tobe vaziyatda turgan har qanday ikkinchi darajali bo‘lak bir vaqtda ajratib

---

<sup>6</sup> Jespersen O. Essentials of English Grammar. –London, 1933; Curme G.O. A Grammar of the English Language. P.3. –Boston, 1933.

kelindi. Gap uzvlarining o‘zaro darajali, ko‘p bosqichli bog‘lanishi e‘tiborga olinmadi.

An‘anaviy tilshunoslikning ana shu cheklangan tomonlarini ayrim olimlar allaqachon payqaganlar va aniqlovchi gapning konstruktiv bo‘lagi ekanligiga shubha bilan qaraganlar. Jumladan, N.A.Baskakov fikricha, aniqlovchining miqdoridan qat‘iy nazar, har qaysi aniqlanmish gap tarkibida o‘zining sintaktik vaziyatiga ega bo‘ladi va aniqlovchi bilan birgalikda bir butun holda bir gap bo‘lagi sanaladi<sup>7</sup>.

N.K.Dmitriyev ham aniqlovchi – aniqlanmish munosabati gapning sintaktik tuzilishi darajasiga kirmasligini bayon qilgan edi<sup>8</sup>.

Ba‘zi o‘zbek tilshunoslari ham 60-70 yillardayoq ikkinchi darajali bo‘laklarning gapdagi maqomi masalasidagi an‘anaviy qarashlarga tanqidiy munosabatda bo‘lgan edilar. Xususan, Sh.Raxmatullayev bu haqda quydagilarni yozadi: “Sifatlovchining o‘ziga xos ayrimliklari borligidan kelib chiqib, uni bir vaqtlar uchinchi darajali bo‘lak deb ham yuritishgan, ammo keyinchalik bu tushuncha va termindan voz kechilgan. Bizningcha, sifatlovchining (kengroq olsak, aniqlovchilarning barcha turlarini) gapning bo‘lagi deb emas, tuzilmaning bo‘lagi deb atash to‘g‘riroq bo‘ladi. Agar hozirgina ta’kidlangan fikrga qo‘shilsak, sifatlovchi o‘z sifatlanmishi bilan birgalikda bir bo‘lak vazifasida keladi – deb umumiy bir qoida chiqarish mumkin”<sup>9</sup>.

Prof. N.Mahmudov aniqlovchilarni gapning konstruktiv bo‘lagi hisoblamagan holda, to‘ldiruvchi va hollarning ham gapdagi vazifasini farqlash lozimligini, gapda birdan ortiq predikat ishtirok etganda asosiy predikat bilan munosabatga kirishgan to‘ldiruvchi va hol bilan ikkinchi darajali predikat bilan munosabatga kirishgan to‘ldiruvchi va hol o‘rtasida

---

<sup>7</sup> Baskakov N.A. Prostoye predlozheniye v sovremennom karakalpaksom yazike. –ISGTY, III. M. 1961, S. 67.

<sup>8</sup> Dmitriyev N.K. Detali prostogo predlozheniya, S. 28

<sup>9</sup> SH.Rahmatullayev. Nutqimiz ko‘rki. Toshkent, 1970, 18-bet.

gapning sintaktik tuzilishidagi vaziyati bo'yicha katta farq mavjudligini ta'kidlaydi<sup>10</sup>.

Keyingi davrlarda an'anaviy ikki cho'qqili nazariyaga bir cho'qqili nazariya qarama-qarshi qo'yildi. Bunga muvofiq, gapning mazmuniy va qurilish markazi kesim deb qaraladi va gapning bo'laklari shu kesimga bo'lgan munosabatiga qarab belgilanadi. Demak, gapning tarkibidan kesimni ajratish bo'lishning birinchi bosqichi sanaladi. Ikkinchi bosqichda esa kesim bilan bevosita munosabatga kirishgan va uning ma'lum bo'sh o'rnini to'ldirib kelish uchun xizmat qilgan bo'laklar bo'lishi ajratiladi. Bu bo'lishning ikkinchi darajasi sanaladi. Yuqorida ko'rsatilgan bo'laklarning o'zi boshqa so'zlar bilan kengayib, ular bilan birgalikda kesimga nisbatan bitta sintaktik vaziyatda kelishi mumkin.

Bunday kengaytiruvchi bo'laklar gapning tuzilish birligi sifatida emas, balki bo'lakning bo'lagi sifatida ajraladi va bo'lishning uchinchi darajasini tashkil etadi. Shuningdek, gapning umumiy mazmunini murakkablashtirish uchun xizmat qiladigan undalma, kirish, kiritmalar ham ajraladiki, bu bo'lishning to'rtinchi darajasini hosil qiladi.

Shu keltirilgan dalillarning o'ziyoq gapni bo'laklarga ajratishning shu kungacha bo'lgan tamoyili o'zini oqlamasligi, gapni faqat ikki darajaga (bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga) bo'lish gapning pog'onali tuzilishini o'zida namoyon eta olmasligini ko'rsatadi. Bu esa gapning sintaktik tuzilish birliklarini yangicha qismlarga bo'lish tamoyilini ishlab chiqishni taqazo etadi.

---

<sup>10</sup> Mahmudov N. Funktsional va nofunktsional to'ldiruvchilar haqida. —O'zbek tili va adabiyoti, 1981, 1-son.

## **1.2. GAPNING SINTAKTIK TUZILISHI VA ATRIBUTIV MUNOSABATNING VOQELANISHI.**

Gap sintaksisning asosiy grammatik kategoriyalaridan biri bo'lib, sintaktik tizimda so'z (so'z shakllar) hamda so'z birikmalari shaklan, mazmunan va funksional jihatlari asosida qarama-qarshi qo'yiladi<sup>11</sup>.

Gap vositasida ma'lum axborot uzatiladi. Gaplar (tuzilishiga ko'ra) sodda va murakkab bo'lishi mumkin. Tor, grammatik ma'noda sodda gap xabarning shunday birligini, u maxsus grammatik ko'rsatkichlar yordamida shakllanadi va muayyan predikativlik munosabatiga ega bo'ladi. Gaplar alohida kommunikativ vazifaga ega bo'lib, ma'lum ohang va so'z tartibi orqali namoyon bo'ladi, obyektiv borliqni muayyan jarayonga asoslangan tarzda belgilanadi.

Gap sintaktik yarusning eng kichik birligidir. So'z birikmasi va boshqa sintaktik tushunchalar shu birlikning elementlaridir. Hozirda barcha sintaktik nazariyalarda gap asosiy sintaktik birlik sifatida tan olinsa ham, ammo shu vaqtga qadar u o'zining aniq bir umumiy ta'rifi (definsiyasi)ga ega emas. Hozirgi kunga qadar gapning 300 dan ortiq definsiyasi mavjud<sup>12</sup>. Bizga ma'lumki, til belgisi sistemalar tarkibiga kiradi. U sistema bo'lib, doimo rivojlanishda va o'zgarishda bo'lgan bir butun birlik hisoblanadi.

E.Benvenist gap haqida shunday deydi: "gap so'zlar vositasida reallashadi. Ammo so'z gapning oddiy bir bo'lagi emas. Gap – bu o'zining qismlari yig'indisidan kelib chiqmaydigan bir butunlikdir"<sup>13</sup>.

Til elementlari o'zaro paradigmatic, sintagmatic iyerarxiyalik munosabatda bo'ladi. Paradigmatic va sintagmatic munosabatlar tushunchalari F.de Sossyur nomi bilan bog'liqdir<sup>14</sup>. L.Tenyer ta'kidicha, gap tarkibiga kiruvchi har bir so'z lug'atda unga mos keluvchi alohidalikni yo'qotadi. Gapning har bir so'zi qo'shni so'zlar bilan ma'lum aloqaga

---

<sup>11</sup> Lingvisticheskiy ensiklopedicheskiy slovar. M: Sovetskaya ensiklopediya. -1990, S. 395.

<sup>12</sup> Benvenist E. Urovni lingvisticheskogo analiza. –V.Kn.; Obshaya lingvistika. M., 1974, S. 133.

<sup>13</sup> Sossyur F.de. Kurs obshey lingvistiki. M., 2004.

<sup>14</sup> Tener L. Osnovi strukturnogo sintaksisa. Str. 17.

kirishishni ko‘rish mumkin, bu aloqalarning yig‘indisi gapning asosi yoki strukturasi tashkil etadi.

Bu aloqalar hech nima bilan ifodalanmaydi. Ammo so‘zlovchilar ongida yuzaga chiqadi, busiz birorta ham gap tushunarli bo‘lmas edi. Men, deb yozadi L.Tenyer “Alfred gapiryapti” gapini talaffuz qilganimda, ikkita alohida tushuncha haqidagi xabarni bermayman, ya’ni ismi “Alfred bo‘lgan odam bor va kimdir gapiryapti” xabarini emas, bu xabarlar mening ongimda birlashib, “Alfred gapirish xarakatini bajarmoqda” yoki “gapirayotganAlfreddir” tarzidagi uzviy xabarni yuzaga chiqaraman<sup>15</sup>.

Gap qismlari so‘zdan iborat bo‘lib, so‘zda gap mazmunining ma’lum bir qismi aks etadi. Shuni aytish zarurki, gap doirasiga kirgunga qadar mustaqil bo‘lgan so‘z nutqda (gapda) har doim ham mustaqil birlik sifatidagi mavqeini oqlashi shart emas.

V.M.Solnsevning ko‘rsatishicha, har qanday tilda gap sistem-struktur qarash nuqtai nazardan sistemadir<sup>16</sup>.

Buning sababi shundaki, har qanday gapda tabiiy ravishda predikativlik mavjud bo‘ladi, unda esa mayl, zamon, shaxs-son ifoda etuvchi ko‘rsatkichlar shakllanadi. Ana shu ko‘rsatkich (shakl)larni o‘zida jamlagan predikativlik ham sistema sanaladi va ma’lum elementlar yig‘indisidan tashkil topadi.

Predikativlik har qanday gapning zaruriy elementi bo‘lsa, predikativlikni tashuvchi asosiy bo‘lak kesim hisoblanadi. Kesim mavqeida keladigan har qanday so‘zshakl minimila gap sifatida belgilanishi mumkin (kesim haqida quyida alohida fikr yuritiladi: “Gapning markaziy birliklari haqidagi qarashlar” nomli paragrafqa qarang).

---

<sup>15</sup> Solnsev V.M. Grammaticheskaya struktura i aktualnoye chleneniye predlojeniya (vmesto predisloviya). –Sb; «Vostochnogo yazikoznaniye. Grammaticheskoye i aktualnoye chleneniye predlojeniya». M. -1984. S. 7.

<sup>16</sup> Loliyev T.P. Predlojeniya i yego grammaticheskiye kategorii. –M., 2007; Shevyakova V.Y. Sovremenniy angliyskiy yazik. –M., 1980.

Sodda gapning asosiy xususiyatlari sifatida uning sintaktik strukturasi va ularning bir-biriga munosabatlari, semantik strukturasi; soʻz tartibi va intonatsiya, gap predikativ asosining komponentlari yoki uning kengaytiruvchilari tarzidagi gap boʻlaklari oʻrin tutadi. Elementlar sintaktik qurilmali sodda gap bir-biri bilan faqat gapda mavjud boʻlgan maxsus munosabatlar bilan birikkan ikki yoki undan ortiq (baʼzan faqat bitta) soʻz shaklidan iborat boʻladi. Soʻzlararo aloqalar birikuv usullariga koʻra, gapning umumiy kengaytiruvchi soʻz shakllari bilan (determinantlar), sifatdash, ravishdash va boshqa oborotlar bilan kengaytirilgan (yigʻiq) gaplar mavjud.

Gap oʻzining bir grammatik shaklida turli darajadagi mavhum maʼnolarini birlashtiradi. Gapning struktur sxemasi barcha gaplar uchun umumiy boʻlgan, predikativlik deb nomlanuvchi umumlashgan maʼnoga ega. Predikativlik maʼnosi konkret gapga koʻchadi va gap paradigmasida turli sintaktik shakllarda modifikatsiyalashadi.

Gap qolipi gapning asosiy grammatik va struktur (qurilish) xususiyatlarini oʻz ichiga olgan mavhum qurilmadir<sup>17</sup>.

Anʼanaviy tilshunoslikda asosan gapning shakliy tomoniga eʼtibor qaratiladi. Gapning bu tomoni gap boʻlaklari rukni ostida oʻrganiladi. Gap tarkibidagi barcha ishtirokchilar ham gap boʻlagi sanalavermaydi. Buning sababi shundaki, gap boʻlaklari tushunchasi faqat ularning oʻzaro dominatsiyasi (tobe) munosabati asosida belgilanadi. Bunday munosabatga kirishmagan boʻlaklar gap boʻlaklari sirasiga kiritiladi. Demak, ikki va undan ortiq tarkibiy qismlardan tashkil topgan butunlikning har bir aʼzosi boshqa bir aʼzoga nisbatan tutgan tobe vaziyatiga qarab belgilanadi.

Atributiv mantiq taʼsirida vujudga kelgan sintaktik nazariyada absolyut hokim boʻlak hukmning tarkibiy qismi boʻlgan subʼektga qiyosan ega hisoblanadi. Qolgan boʻlaklar esa shu ikki boʻlakdan biriga bogʻlanish

---

<sup>17</sup> Artunova N.D. Funkcii opredeleniy v bitiynix predlojeniyax // Russkii yazik: Tekst kak seloye i komponenti predlojeniya. –M., 1998.

asosida e'tirof qilinadi. shu asosda gapning shakliy (sintaktik) tuzilishi beshta gap bo'lagiga ajratiladi. Gapning mazmuniy tomoni ayrim hollardagina tadqiqotchilar diqqatini jalb etdi.

Agar biz gapga gnoseologik nuqtai nazardan yondashadigan bo'lsak, har bir gapning shakliy tuzilish birliklari inson ongida aks etgan ob'ektiv olam uzvlarini ifoda etishi namoyon bo'ladi. Inson ongida aks etgan ob'ektiv olam uzvlari bilan uning muayyan bir tilda moddiy ifodalanishi o'rtasidagi aloqani o'rganish ob'ektiv olamdagi inson ongida aks etgan ma'lum vaziyatni (propozitsiyani) qanday sintaktik vositalar yordamida ifodalanishini tadqiq qilish ma'lum bir tilning sintaktik transformatsiyalanish imkoniyatlarini ochishda katta ahamiyatga ega. Shunday ekan, gapni faqat shakliy tomondangina gorizontal holatda o'rganish muayyan cheklanganlik kasb etadi. Shakliy birliklar bilan bu birliklar orqali ifodalangan ob'ektiv olam uzvlari o'rtasidagi vertikal munosabatni ham o'rganish sintaktik sinonimiya, sintaktik omonimiya, sintaktik polesemiya singari hodisalarni ham to'g'ri yoritishga imkon beradi<sup>18</sup>.

Ma'lumki, har qanday gap shakl va mazmun birligidan iborat bo'lgan bir butunlikdir. Gapning bu ikki tomoni butunlik tarkibida o'zaro aloqada bo'lib, ular butunlik elementlari sifatida o'zlarining alohida xususiyatlariga ega. Har ikkisi ham butunlik sifatida alohida elementlardan tuzilgan va gapda o'zaro munosabatga kirishadi. Gapning sintaktik strukturasi unda ifodalangan obektiv mazmunni ifodalayotgan moddiy vositalar, ya'ni sintaktik shakllardan iboratdir. Sintaktik struktura ham butunlik sifatida o'zaro munosabatda bo'lgan bir necha elementlardan tashkil topadi. Bu unsurlar (elementlar) an'anaviy tilshunoslikda gap bo'laklari atamasi bilan nomlanadi. Biroq sintaktik struktura (tuzilish) tarkibidagi barcha sintaktik shakllar gap bo'laklari tarkibiga kiritilmaydi. An'anaviy tilshunoslikda

---

<sup>18</sup> Peshkovskiy A.M. Russkiy sintaksis v nauchnom osveshenii. M., 2008.

sintaktik shaklning tobe aloqaga kirishishi uning gap bo'lagi hisoblanishining bosh mezoni hisoblanadi<sup>19</sup>.

An'anaviy tilshunoslikda sintaktik butunlik bo'lgan gapning faqat shakliy tuzilishi o'rganilib, mazmuniy aspekti e'tibordan chetda qoldi<sup>20</sup>.

Gap semantikasini tadqiq etish XX asrning 60-yillaridan boshlandi<sup>21</sup>. Gapning semantik tuzilishi uch uzvdan iborat bo'ladi:

propozitiv;

modal;

kommunikativ.

Til birligi sifatida gap semantikasi asosan propozitiv va ob'ektiv modallikdan iborat bo'lib, nutq birligi sifatidagi gapda esa bu ikkisidan tashqari kommunikativlik va sub'ektiv modallik qo'shiladi.

N.Y.Shvedova gapning mazmuniy tuzilishi sifatida tipiklashtirilgan ma'no elementlarining mavhumlashgan holda til sistemasida aks etgan mazmunini tushunadi. U gap mazmunini ekstralingvistik omillarsiz, sof til materiallariga tayangan holda o'rganishga harakat qiladi.

O.I.Moskalskaya boshqa yo'nalish tarafdorlaridan biri bo'lib, u gapning nominativ minumumi elementlarning leksik ma'nolariga asoslanadi. Bunda gapning mazmuniy tuzilishi tuzilish sxemalari chegarasidan tashqarida ajratiladi<sup>22</sup>.

Y.N.Paduchevaning fikricha, gap ma'nosi leksema ma'nolaridan va sintaktik qurilmalarning ma'nolaridan tashkil topadi. V.G.Gak gapni to'liq til belgisi hisoblab, gap referenti vaziyatidir, deydi<sup>23</sup>.

Sintaktik semantikada o'zaro bog'langan va bir-biriga zid bo'lgan ikki aspekt semaseologiya va onomaseologiya ajratiladi. Birinchisi ma'lum sintaktik birlik nimani aks ettirishini, ikkinchisi ma'lum vaziyat qanday

---

<sup>19</sup> Danes P. Some thoughts on the semantic structure of the sentence // *Lingua*, V.91., 1997.

<sup>20</sup> Safarov Sh. *Prinsipi sistemno-semanticheskogo analiza sintaksicheskix yedinit*. –Toshkent, 1983.

<sup>21</sup> Moskalskaya O.I. *Problemi sistemnogo opisaniya sintaksisa*. –M., 1981.

<sup>22</sup> Gak V.G. *Teoreticheskaya grammatika fransuzskogo yazika*. –M., 1988.

<sup>23</sup> Yokoyama O. *Discourse and word order*. –Amsterdam, 1996.

ifodalanganligini ko'rsatadi. Semasiologik aspekt denotativ yoki nominativ aspekt deb yuritiladi. Bu aspektni ifodalash uchun tilshunoslikka mantiq va falsafiy tadqiqotlar ta'sirida kirib kelgan propozitsiya atamasidan foydalaniladi.

Propozitsiya tushunchasi mantiqiy va semantik tushuncha bo'lib, dastlab tilshunoslar uni hukmning ifodalanish shakli sifatida qabul qilganlar. Propozitsiya semantik tushuncha tarzida inson ongida aks etgan borliqdagi predmet va hodisalar o'rtasidagi munosabat, borliqning muayyan vaziyatidir. Predikat esa propozitsiya bilan uzviy birlikda bo'lib, uni yuzaga chiqaruvchi vositadir. Shu jihatdan, har qanday propozitsiya muayyan sintaktik birliklar orqali ifodalanadi va har qanday gapning asosini propozitsiya tashkil qiladi.

Gapning propozitsiya tuzilishini predikat va uning argumentlari shakllantiradi. Predikat va uning argumentlari munosabati sintaktik modellarni vujudga keltiradi. "Argumentlar predikatlarning bo'sh o'rinlarini to'ldirib keladi. Sintaktik modellar ma'lum sintaktik ma'no asosida ma'lum sintaktik maydonni hosil qiladi"<sup>24</sup>.

Propozitsiya obyektiv borliqning ma'lum bir nutq vaziyati bilan bog'liq parchasi, fragmenti bo'lib, gap semantikasida muhim o'rin tutadi<sup>25</sup>.

N.Mahmudovning qayd etishicha, gapda ifoda etilgan voqea, hodisa, gap nominativ jabhasidagi ifoda va mantiqiy negiz propozitsiya tufayli anglashiladi<sup>26</sup>.

S.Inoyatov propozitsiya va predikativlik tushunchalarining doimo teng kelmasligi xususida to'xtalib, propozitsiya va predikativlik tushunchalari uchun umumiy bo'lgan gapga xos mantiqiy xususiyatlarni inkor etmagan holda, ularning farqli tomonlarini shunday izohlaydi: "predikativlik gapning signifikativ-grammatik, propozitsiya esa mantiqiy-denotativ tomoni bilan

---

<sup>24</sup> Shmeleva T.V. Propozitsiya i yeyo reprezentatsiya v predlojenii // Problemi teorii i istorii russkogo yazika. Vip. 3. M. 1980, -S. 31.

<sup>25</sup> Mahmudov N. O'zbek tilidagi sodda gaplarda semantik va sintaktik assimetriya. T.1981. –B.9.

<sup>26</sup> Raspopov I.P. O tak nazivayemoye semanticheskoy strukture predlojeniya. –V.Y. 1981. №4. – S. 26.

bog‘lanadi. Shuningdek, gaplar predikativlik tufayli mushtarak kategoriyaga jipslashsa, propozitsiya tufayli biri boshqalaridan ajralib turadi. Demak, predikativlik umumiy mantiqiy-grammatik hodisa, propozitsiya xususiy mantiqiy-denotativ (mantiqiy-situativ) hodisa hisoblanadi... Ularning biri (predikativlik) gapni umumlashtirish, mavhumlashtirish uchun, boshqasi (propozitsiya) xususiylashtirish (differensiativ vazifa) uchun xizmat qiladi”.

Klassik mantiqda propozitsiya yoki mantiqiy hukm deyilganda, borliqning ma’lum predikatlari xususida tasdiq yoki inkor shaklida muayyan xabar beruvchi fikr ifodasi tushunilgan. Bugungi kunda tilshunoslikda ko‘pchilik mutaxassislar gap semantikasida o‘z ifodasini topgan obyektiv mazmunni propozitsiya atamasi orqali ifodalaydilar.

Ayrim olimlar vaziyat tushunchasini inson ongi asosida – ruhiy vaziyatga nisbatan qo‘llaydilar, bunda gap mazmunida ekstralingvistik omillarni rad etmagan holda, til ifodasini obyektiv borliq, vaziyat bilan inson ongida mavjud bo‘lgan “obyektiv borliq obrazlari asosida bog‘lanishga asoslanadilar. Mazmuniy struktura bilan shu ko‘ruvchi barcha olimlar gapning mazmuniy strukturasi o‘zi ifodalagan obyektiv reallik strukturasi bilan bir xildir” deb hisoblaydilar<sup>27</sup>.

CH.Fillmor ramziy mantiqning predikat-argument tamoyilidan foydalanib, mazmuniy strukturani ichki struktura deb ataydi. V.V.Gak ichki strukturani vaziyat bilan bir xil bo‘lgan leksik-semantik tuzilishdir deb hisoblaydi va ichki struktura predikat bilan quyidagi yetti aktantni o‘z ichiga olishini ko‘rsatadi: 1) subyekt; 2) obyekt; 3) adresat; 4) initsiator, qurol, sabab (u jarayonni yuzaga chiqarish uchun yordam beruvchi yoki to‘sqinlik qiluvchi substansiya); 5) fazoviy konkretlashtiruvchi (harakatning yuzaga chiqishi yoki tugash o‘rni) qarashi yoki bir qismi subyekt yoki subyektini tashkil qilgan substansiya.

O‘zaro munosabatda bo‘lgan predmet, hodisa, xususiyat, harakat va h.k. birligidan tashkil topgan obyektiv borliqning alohida elementlar

---

<sup>27</sup> Susov I.P. Семантическая структура предложения Tula. 1973. С. 16.

ansambli esa gapning denotati hisoblanadi. Gap denotati bo'lgan alohida elementlar ansambli ko'pchilik adabiyotlarda vaziyat (situatsiya) atamasi bilan nomlanadi. Har qanday vaziyat turli elementlarning o'zaro munosabatidan tashkil topgan bir butunlik – sistemadir. Vaziyat elementlari predmetlar va belgilardan iborat<sup>28</sup>.

An'anaga ko'ra, gap hukmning so'zlar vositasida ifodalanishi deb qaraladi. Shunga ko'ra, sintaksis mantiqiy kategoriyalar asosida o'rganiladi. Hukm mantiqda subyekt predikat munosabatidan tashkil topgani sababli gap mazmuni ham subyekt – predikat strukturalariga ajratiladi. Subyekt ega va ega sostaviga, predikat kesim va kesim sostaviga tenglashtiriladi.

Gap bo'laklarining shakli deganda odatda, sintaktik butunlik sifatida uning sintaktik shakli, ma'nosi deyilganda esa, sintaktik ma'nosi nazarda tutiladi. Demak, gap bo'laklarining shakli va mazmuni o'rtasidagi munosabat aslida sintaktik shakl va sintaktik ma'no o'rtasidagi munosabatdir<sup>29</sup>.

Gap bo'laklarining shakliy va mazmuniy tomoni o'zaro uzviy bog'lanadi, biri ikkinchisini taqozo etadi.

Til sistemasining barcha sath birliklari nutq jarayonida o'zaro bog'liq holda yuzaga chiqadi. Har bir leksema muayyan shaklga ega bo'lib, so'z shakl orqali gap tarkibida ma'lum sintaktik pozitsiyada keladi. Leksemaning har bir sintaktik qo'llanishi shu leksemaning “roli” va predikativ so'z shakl o'rtasidagi muvofiqlik bilan xarakterlanadi. Ana shu muvofiqlik diateza hisoblanadi.

Odatda bu ikki qurilish birliklari o'rtasidagi xoslanish predikatning kesim, sub`ektning ega, obyektning to'ldiruvchi sifatida pozitsiya egallashi bilan belgilanadi. Biroq shakl va mazmun o'rtasida nomuvofiqlik holatlari ham mavjud. Jumladan:

my sister read – subyekt – ega

---

<sup>28</sup> Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi (sintaksis). Toshkent, O'qituvchi, 1995. 59-bet.

<sup>29</sup> Abdullayeva D. Polisubyektlilik sintaktik qurilmalarda subyektning ifodalanishi // -O'zbek tili va adabiyoti, 2001, 3-son, 64-bet.

*reading of my sister* – subyekt – aniqlovchi

*my reading sister* – subyekt – kesim v.b.

ko‘rinadiki, sister leksemasi orqali berilgan subyekt ma‘nosi birinchi misolda ega pozitsiyasida, ikkinchi misolda aniqlovchi pozitsiyasida, uchunchi misolda kesim pozitsiyasida ifodalanmoqda. Bundan gap bo‘laklari orqali shakl va mazmun o‘rtasidagi qarama-qarshilik birligi yuzaga chiqdi, deb hisoblash mumkin.

Ma‘lum morfologik shaklga ko‘ra subyekt ma‘nosini ifoda etadigan so‘zlar turli shakllarda, xususan, kelishik shakllarida kelishi mumkin. Bir subyektning o‘zi ham muayyan situatsiyada qator kelishik shakllari orqali namoyon bo‘ladi.

Gap mazmuniy tuzilishida markaziy o‘rin tutuvchi propozitiv qurilma yaxlitlik sifatida ma‘lum uzvlar aloqasidan iborat bo‘ladi. Propozitiv tuzilishning ichki tuzilish birliklari orasida subyekt tushunchasining ham o‘rni bor. Ilmiy manbalarda mantiqiy va mazmuniy subyekt tushunchalarini farqlashga e‘tibor berila boshladi. N.D.Arutyunova o‘zining mazmuniy sub`ektning ifodalanishi to‘g‘risidagi tadqiqotida mantiqiy va mazmuniy tuzilish birliklari haqida shunday fikr bildiradi: “Mazmuniy va mantiqiy subyekt va predikat tushunchalari bir-biriga yaqin bo‘lsa ham, lekin ular qiymat jihatdan bir-biridan katta farq qiladi. Shuningdek, mantiqiy subyekt va predikat tushunchalari o‘zaro nisbatlangandir. Agar bu ikki tushunchalar yakka holatda olinadigan bo‘lsa, hukm ifodalay olmaydi”<sup>30</sup>.

Sintaktik birliklar shakl va mazmun munosabatidan tashkil topgan yaxlitlik bo‘lishi bilan birga, har qaysi tomon o‘z ichki tuzilish birliklariga ega. Sintaktik birliklar uchun xos bo‘lgan mazmuniy va shakliy tuzilish birliklari o‘rtasidagi munosabatni belgilash o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Gap bo‘laklarining noamaliy mavqei gapning sintaktik va semantik qurilishida yuz beruvchi nomunosiblik (asimmetriya) tufayli vujudga keladi.

---

<sup>30</sup> Artuyunova N.D. Predlojenije i yego smisl. –M., 2007.

Noamaliy mavqe masalasi gapning ham shakliy, ham mazmuniy sathlari bilan aloqador bo'lganligi uchun ham sintaksis nazariyasi uchun ahamiyatlidir. Shakliy va mazmuniy tomonlar baravar hisobga olingandagina sintaktik nazariya haqiqiy nazariya bo'la oladi.

## **I - BOB YUZASIDAN QISQACHA XULOSALAR**

1. Atributiv tuzilmali gapni qismlarga ajratish va uning ichki uzvlarini shu qism doirasida belgilash aniqlovchilarning gap shakliy tuzilishidagi o'rnini belgilashda katta ahamiyatga ega.

2. Gapning uyushtiruvchi markazi sifatida kesim belgilanadi, qolgan bo'laklar kesimning kengaytiruvchilari yoki kengaytiruvilarning kengaytiruvchilari hisoblanadi. Bunga ko'ra atributiv unsur kesimning subyekt valentligini to'ldiruvchi bo'lak emas.

3. Atributiv unsur nominativ funksiya bajarishda ishtirok etadi, u gapda o'ziga xos kommunikativ vazifa bajarsa-da, ot orqali ifodalangan gap bo'lagining ichki strukturasiga kiruvchi tobe bo'lak hisoblanadi.

4. Aniqlovchilar gap kesimi bilan to'g'ridan to'g'ri munosabatga kirishmaydi, balki kesimga bog'lanib kelayotgan bo'lakning belgisini bildiradi va gap bo'laklarini kengaytirish uchun xizmat qiluvchi bo'lakning bo'lagi pozitsiyasida turadi.

5. Aniqlovchilar predmetga tobelanib, u bilan zich aloqada bo'ladi. Aniqlovchi-aniqlanmish munosabatidagi qurilmalar gap kesimiga bir butun holda bog'lanadi va gapda aniqlanmishning mavqei asosida bir vaziyatni egallaydi.

6. Aniqlovchilar gap predikati bilan bilvosita aloqaga kiruvchi birlik tarzida predikat argumenti bo'lgan to'ldiruvchi, ega, hol pozitsiyasidagi gap bo'laklari uchun kengaytiruvchi argument sanaladi.

## II-BOB. ATRIBUTIV TUZILMALARNING GAP TARKIBIDAGI STRUKTUR-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

### 2.1.ANIQLANMISHI OT BO‘LGAN QURILMALARDA ANIQLOVCHINING STRUKTUR-SEMANTIK O‘RNI

Ot leksemalar sintaktik qurilmalarning uyushtiruvchi markazi sifatida o‘ziga bog‘lanayotgan leksemalar, ya’ni aniqlovchi vazifasidagi so‘zlarni ergashtirib keladi. Unga tobe bo‘lgan uzvlar esa uyushtiruvchi markaz hisoblanuvchi turli pozitsiyadagi (ega, hol, to‘ldiruvchi) ot turkumida kelgan vositaning argumenti bo‘lib keladi. O‘z navbatida, ushbu sintaktik qurilmaning markazi bo‘lgan ot leksemalar ham predikatga bog‘lanib, uning argumenti sifatida “bo‘sh o‘rin”larni to‘ldirish uchun xizmat qiladi. Qurilma tarkibidagi tobe va hokim birliklar yaxlit holda butun gapga nisbatan bitta pozitsiyada keladi. Ot leksemalarga ergashib keluvchi ichki tobe qismlar ma’lum pozitsiyada kelgan birikmaning kengaytiruvchisi vazifasini bajaradi. Uyushtiruvchini markazi ot bo‘lgan qurilmalarda aniqlovchi substansional jihatdan ot, olmosh, sifat, fe’l (sifatdosh) son, ravish hamda taqlid so‘zlar bilan ifodalanishi mumkin. L.Tenyer otga tobe bo‘lgan, shuning uchun substantiv tugunga kiruvchi elementlar<sup>31</sup> deb fikr bildirgan.

Ot + ot tipidagi qurilmalarning ikkala komponenti ham ot turkumidagi leksemalar bilan shakllanadi.

*This girl was sitting in her mother’s room (A.C. p-117)* gapida predikat, *was sitting* fe’l -leksemasi markaziy element bo‘lib, *girl*, *mother’s room* ifodalari unga ergashib kelayapti. Bu yerda ega pozitsiyasidagi *girl* leksemasi kabi hol pozitsiyasidagi *mother’s room* qurilmasi ham predikat argument sanaladi. Ikkinchi qurilma o‘z ichida qaratuvchi (onasining) va qaralmish (xuzurida) munosabatidan tashkil topgan yaxlitlik sifatida gavdalanadi. Qurilma tarkibidagi aniqlovchi (qaratuvchi) muayyan pozitsiyada kelmay, o‘zi ergashib kelayotgan aniqlanmish (qaratuvchi) muayyan pozitsiyada kelmay, o‘zi ergashib kelayotgan aniqlanmish (qaralmish) bilan birga predikatning argumenti sifatida kengaytiruvchi vazifasini

---


<sup>31</sup> Tenyer L. Osnovi strukturnogo sintaksisa. –M;1988. s. 158.

bajaryapti. Ushbu kengaytirish *mother's* aniqllovchisi argumentning argumenti yoki bo'lakning ichki bo'lagi tarzida belgilash imkonini beradi.

L.Tenyer gap tarkibiga kiruvchi so'zlar guruhi haqiqiy iyerarxiyani tashkil etishini ta'kidlab, *My friend is speaking* tipidagi gaplarda *my* so'zi *friend* so'ziga, u o'z navbatida, *is speaking* so'ziga tobe ekanini va aksincha, *speaking* so'zini, o'z navbatida, *My friend* so'zini boshqarishini ko'rsatib o'tadi.


Yuqoridagi gap doirasida ushbu sxemani (L.Tenyer) belgilaydigan bo'lsak, dastlabki bog'lanishda (faqat hol va kesim munosabatida) chiziqlar tik holda bo'ladi.

Ya'ni:




*Bu yerda pastki chiziqlardan yuqori chiziqlarga bog'lanish (tobelik) nazarda tutilgan.*

Keyingi umumiy bog'lanishda chiziqlar tik va yotiq holda bo'ladi:





Ushbu iyerarxiyani quydagi sxema orqali ifodalash mumkin:

Bu yerda




*My question is about this* (S.Maugham-122) tarzidagi gaplarda ham qaratqich-qaralmish birikmali qurilmalar amal qiladi. Ot+ot tipli qurilmalar asosan qaratqichli aniqlovchilar orqali yuzaga keladi. Yuqoridagi gapda qaratqichli aniqlovchi bilan shakllangan qurilma hol pozitsiyasida kelgan bo'lsa, keyingisida *my question* qurilmasi ega vaziyatida kelayapti va *this* leksemasi bilan ifodalangan kesimning argumenti sifatida gavdalanyapti. *My* leksemasi (qaralmish) o'ziga *question* leksemasi (qaratuvchi)ni ergashtirgan holda, shu predikatning kengaytiruvchisi funksiyasini bajaryapti. Demak, gap tarkibidagi aniqlovchi eganing bo'lagi sifatida noamaliy mavqeda turibdi<sup>32</sup>. L.Tenyer konsepsiyasi bo'yicha bu gapni shunday belgilashimiz mumkin:



<sup>32</sup> Bu haqda qarang: Abdusamatov A. O'zbek tilida gap bo'laklarining noamaliy mavqei masalasi: Filol. Fan.nom. ....dis. avtoref. Samarqand, 1994.

O'zbek tilidagi "Gapning tagini gap ochar" maqolidagi ochar predikatiga ikki argument-to'ldiruvchi pozitsiyasidagi gapning tagini, ega pozitsiyasidagi gap birikmalari ergashib kelayapti:




Ko'rinadiki, to'ldiruvchi vaziyatida kelayotgan bo'lak o'z ichida yana ichki bog'lanishlarga ega bo'ladi, bu bog'lanish qaratuvchi-qaralmish munosabatidagi ot+ot tipli birikma hosil qiladi.

Xuddi yuqorida berilgan gaplar singari aniqlovchi funksiyasini bajaruvchi gapning leksemasi butun gapning predikati bo'lgan ochar leksemasiga to'g'ridan-to'g'ri bog'lanmay tagini leksemasiga ergashib, shu leksema orqali o'z mavqeini yo'qotmoqda, ya'ni ikkisi birgalikda bitta pozitsiya –to'ldiruvchi vaziyatini egallamaoqda. Predikat uchun ham bu qurilma argument vazifasini bajariyapti. Aniqlovchi gapning asosiy markaziga to'g'ridan-to'g'ri bog'lanmagani sababli, gap bo'laklari iyerarxiyasi ko'zga tashlanmoqda. Bu o'rinda gapning markaziy nuqtasi sanalgan kesimga nisbatan ega vaziyatidagi gap leksemasi kesimning emas, unga nisbatan ergashib kelayotgan tagini leksemasining, ya'ni bo'lakning bo'lagi funksiyasini bajarib kelayapti.

Ta'kidlash kerakki, *Face is mirror of soul, Language is key of the soul*(J.B.P-322) ko'rinishli gaplarda predikatning o'zi ichki bog'lanishlarga ega bo'ladi. Garchi bu o'rinda *Face, language* kabi ega pozitsiyasidagi leksemalar xuddi (*of*) *soul* leksemalari singari *mirror, key* leksemalariga bog'langanday tuyulsa-da, ularning bog'lanish xarakteri bir xil deb bo'lmaydi. Chunki yuqoridagi gaplarda berilgan aniqlovchili qurilmalar hol pozitsiyasidagi *mother's room*, ega pozitsiyasidagi *my question*, to'ldiruvchi pozitsiyasidagi *gapning tagini* birikmalari singari *mirror soul, key of soul* qurilmalari ham qaratuvchi-qaralmish shaklli ot+ot tipida bo'lib, kesim pozitsiyasini egallayapti. Bu gaplarda kesim vaziyatida kelgan bo'lak, ya'ni predikat ichki tobelik munosabatidan tashkil topmoqda.

Ot predikatli ushbu gaplarning umumiy sxemasini shunday ifodalash mumkin:



Aniqlovchining boshqa gap bo‘laklari singari bog‘lanish xususiyati darajasiga ega emasligi an’anaviy ilmiy grammatikalarda ham qayd etiladi: “Aniqlovchi bo‘lak aniqlanmish bilan zich bog‘langan bo‘ladi. Ularning ikkalasi birlikda aniqlovchi birikma sanaladi”.<sup>33</sup>

Ot+ot shaklli qurilmalarda ba’zan odatdagi qaratuvchi+qaralmish tipidagi tartib almashinishi mumkin. Bu holat o‘zbek tilida fors-tojik tilining ta’sirida ro‘y berishi kuzatiladi. Bunday shakllarni A.G‘ulomov va M.Asqarovalar arxaik shakllar sifatida e’tirof etadilar: *Shul erur aybim, Muqimiy, mardumi Farg‘onaman (Muqumiy S 122-b)*.<sup>34</sup>

Bunday qurilmalarda ichki tobelik munosabatlari qaralmish+qaratuvchi tarzida o‘zgarsa-da (mardumi Farg‘onaman), ular birlikda butun gap uchun bitta pozitsiyani egallashi saqlanadi.

Ot+ot shaklli qurilmalar ayrim hollarda sifatlovchi-sifatlanmish munosabatini ham hosil qilishi mumkin. Bunda tur, jins, xoslik, aniqlanmishning materiali ifodalanadi.

*The Megro’s desire for the land was acute (R.L.S-133p)* ifodasidagi *Megro* leksemasi ot turkumidagi so‘z orqali ifodalangan aniqlovchi vazifasida kelayapti. Ushbu leksema o‘z bog‘lanib kelayotgan birliklar ta’sirida o‘z mavqeini egallaydi.

Ot+ot shaklli qaratuvchi-qaralmish munosabatidagi qurilmalar ma’lum ko‘rsatkichlar (moslashuv yo‘li) orqali yuzaga kelsa, sifatlovchi-sifatlanmish munosabatidagi bu qurilmalar mazmun va ohang yo‘li (bitishuv) bilan birikadi va belgi ifodalash uchun xizmat qiladi. Ularning ikkisi ham gapning markaziy nuqtasi

<sup>33</sup> G‘ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T.: O‘qituvchi. -1987, 105-bet

<sup>34</sup> Ilyish B. The Structure of English. L., 1971. P.221.

sanalgan kesimga bevosita emas, bilvosita bog‘lanadi. Demak, bu kabi barcha tobe vaziyatdagi bo‘laklar gap bo‘lagi bo‘la olmaydi, ular bo‘lakning bo‘lagi pozitsiyasini egallashi bilan xarakterlanadi.<sup>35</sup>

Ot+ot ko‘rinishli birikmalar sirasiga izohlovchili qurilmalarni ham kiritish mumkin. An‘anaviy qarashlarda izohlovchi ham aniqlovchining bir ko‘rinishi bo‘lib jins va tur bildiruvchi so‘zlarning munosabatini ifodalashi<sup>36</sup>, predmetga boshqa nom berish, uni boshqacha atash yo‘li bilan aniqlaydigan bo‘lak<sup>37</sup> ekanligi, predmetning boshqacha nomini bildirishi<sup>38</sup> ko‘rsatib o‘tiladi. Agar izohlovchili birikmalarda ikki predmetning o‘zaro munosabati ifodalanishini<sup>39</sup> e‘tiborga oladigan bo‘lsak, ularni ot+ot tipidagi qurilmalar doirasiga kiritish imkoni tug‘iladi.

Ba‘zilar izohlovchilarni izohlanmishga nisbatan mustaqil bo‘lgan (*Ahmad, my brother, went to school* shaklidagi gaplarda kuzatiladi) va mustaqil bo‘lmagan (*Uncle Tom ...* tarzida) turlarga ajratadilar va mustaqil bo‘lmagan izohlovchining muhim xususiyati o‘zi izohlagan ot bilan juda zich bog‘lanish ekanligini ta’kidlab o‘tadilar<sup>40</sup>. Shunga ko‘ra, gapda uning boshqa bo‘laklari, xususan, kesim bilan bog‘lanishda o‘ta zich birikkan izohlovchi-izohlanmish munosabatidagi qurilmalarni yuqoridagi birikmalar tarkibiga kiritamiz. Ular aniqlovchining boshqa turlaridan farqlanib, izohlanmishdan keyin ham qo‘llanilishi mumkin:

The captain

Pete

Pete

The captain

---

<sup>35</sup> Veikhman G.A. A new look at English Syntax. M., 2002. P. 122.

<sup>36</sup> G‘ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T.: O‘qituvchi. -1987, 109-bet; Hojiyev A. Lingvistika terminlarining izohli lug‘ati. T.: O‘qituvchi. -1985, 37-bet; Saidova R.X. Predlozheniye v sovremennoye. uzbekskom. literaturnom yazike. AKD. T-1975. –S. 5.

<sup>37</sup> Jigadlo V.N., Ivanova I.P., Iofik L.L. Sovremenniy angliyskiy yazik. Teoreticheskiy kurs grammatiki. –M. 1956.

<sup>38</sup> Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati. T.: O‘qituvchi. -1985, 37-bet. va boshq.


<sup>39</sup> Buranov J., Yusupov U., Iriskulov m., Sadikov A. The Grammatical Structure of English, Uzbek and Russian. –T., 1986.

<sup>40</sup> Blokh M. A Course in Theoretical English Grammar. –M., 1983.

Izohlovchili birikmalar ko‘pincha turdosh va atoqli otlardan shakllanadi, bunda atoqli ot izohlanmish, turdosh ot izohlovchi hisoblanadi. Izohlovchilar millat, kasb, undov, qarindoshlik nomlari kabilar orqali ifodalanadi.

*Uncle Tom was hesitating for a moment*(G-143p) gapida *was hesitating* predikati o‘ziga ega pozitsiyasidagi *Uncle Tom*, hol pozitsiyasidagi *for a moment* birikmalarini ergashtirib kelayapti. Har ikki argument o‘z ichida yana ichki bog‘lanishga ega bo‘lib, izohlanmish-izohlovchi munosabatli dastlabki qurilmaning ichki substansional shakli ot+ot tipida, keyingisi ravish+ot tipida (bunday qurilmalar xususida quyida to‘xtalib o‘tamiz) yuzaga kelgan.

Ko‘rinadiki, izohlovchi-izohlanmish munosabati orqali shakllangan qurilmalar qaratuvchi-qaralmish munosabatli birikmalarga nisbatan ancha birikkan holda bo‘ladi. *Uncle Tom* birikmasi predikatning argumenti sifatida uning “bo‘sh o‘rin”larini to‘ldirish uchun xizmat qilmoqda va ayni paytda, ichki bog‘lanishni hosil qilayapti. *Tom* leksemasi *uncle* leksemasini o‘ziga ergashtirib, ikkisi yaxlit holda kesimga bog‘lanayapti. *Uncle* leksemasi o‘z ichki doirasida *Tom* so‘zining argumenti sifatida amal qiladi. A.Tenyer sxemalari asosida ushbu gapni quydagicha belgilash mumkin:



Izohlovchili qurilmalarda gap kesimi (predikati)ga izohlovchi ham, izohlanmish ham gap bo‘lagining ma’lum nutq vaziyatidagi ma’nosi orqali mustaqil tarzda bog‘lanishi ko‘zga tashlanadi.

E’tibor qiling:

Major Lindsman started to speak

Lindsman started to speak

Major started to speak

Izohlovchili birikmalar qaratuvchi vazifasida kelib, o'zidan keyingi leksemaning argumenti bo'lishi, ular yaxlit holda gap predikatining argumenti sifatida ifodalanishi ham mumkin. Masalan:

*For a moment, Melanie thought how nice Captain Butler was* (H.E.B-212p).

Berilgan gap predikati (kesim) ikki bo'lakni o'ziga ergashtirib kelmoqda, ega pozitsiyasidagi *Melanie* va to'ldiruvchi pozitsiyasidagi *how nice Captain Butler*. Izohlovchili konstruksiyaning o'zi yana bir necha ichki bog'lanishlarni ifodalaydi.

*Captain* leksemasi *Butler* leksemasining izohlovchisi sifatida ot+ot tipli birikmani shakllantirgani holda, ushbu qurilma *nice* leksemasi uchun qaratuvchi funksiyasida kelib, uning argumenti bo'lib xizmat qilayapti. Barchasi yaxlit holda *was* predikatining "bo'sh o'rin"larini to'ldirmoqda. Bunda gap bo'laklari mavqei sistema tarkibida amal qiluvchi elementlarning shakliy belgilari bo'lib, ular o'ziga xos yana boshqa sistemani tashkil etadi<sup>41</sup>.

Ushbu gapda ot+ot tipli birikma faqat bitta pozitsiyani egallayapti. Gapdagi birikmalar bog'lanishi quyidagicha:

*Melanie thought how nice Captain Butler was*

Bu yerda, A.Tenyer ta'limoticha, barcha so'zlarni o'ziga bevosita yoki bilvosita tobe qilgan so'z tashkil qilgan tugun markaziy tugun deyiladi.

Bunday tugun butun gapning markazida turadi. U gapning struktur birligi barcha elementlarni bir bog'lamga birlashtirish bilan ta'minlaydi<sup>42</sup>.

Sifat+ot shaklidagi qurilmalar odatda sifatlovchi-sifatlanmish munosabatidan iborat bo'ladi.

Sifatlovchili birikmada birinchi qism (sifatlovchi) ikkinchi qismning (sifatlanmishning) biror xususiyatini aniqlab keladi. Bu material jihatidan asosan shunday: ot bo'lmagan so'z+ot<sup>43</sup>.


---

<sup>41</sup> Li CH., Tompson A. Subject and topic: a new typology of language. In: Subject and topic. New York, 1976.

<sup>42</sup> Tenyer L. Osnovi strukturnogo sintaksisa. –M., 1988.

<sup>43</sup> Yusupov U. Contrastive Linguistics of the English and Uzbek Languages. T., 2013. –P. 146.

*The weather helped us to reach sunny days* (S.B. 175-p) gapida *helped* kesimi o'ziga ega pozitsiyasidagi *The weather*, to'ldiruvchi pozitsiyasidagi *us* va *sunny days* birliklarini ergashtirib kelayapti. To'ldiruvchi pozitsiyasidagi *sunny days* qurilmasi o'z ichiga alohida bog'lanishni hosil qiladi, *sunny* leksemasi *days* leksemasiga ergashib, uning argumenti bo'lgani holda, ikkisi yaxlit holda predikat argumenti sanaladi:




Sifat orqali ifodalangan aniqlovchi *helped* kesimiga to'g'ridan-to'g'ri bog'lanmay, to'ldiruvchi mavqaida turuvchi *days* leksemasi vositasida munosabatga kirishgani sababli, aniqlovchi gap bo'lagi emas, bo'lakning bo'lagi mavqaida turadi.

*The best rule is honesty* (Ch.P-122p) gapida kesimga faqat bitta qurilma *best rule* birikmasi bog'lanyapti. Ega pozitsiyasidagi *The best rule* birikmasi o'z ichida sifatlovchi-sifatlanmish shaklidagi (sifat+ot) munosabatini hosil qilmoqda. Sifatlovchi muayyan pozitsiyada kelmay, o'zi ergashib kelayotgan aniqlanmish bilan predikat argumenti sifatida kengaytiruvchi vazifasini bajaryapti, uning o'zi esa argumentning argumenti hisoblanadi. Ushbu gap tarkibiga kiruvchi vositalar (bo'laklar) iyerarxiyasini shunday ko'rsatish mumkin.

*The best rule is honesty*

Ya'ni: *honestness*

rule  
|  
the best



Bu yerda:


N - ot

Np – ot kesim

Adj - sifat

*Clearness is main value of speech* (D.C-261p) gapida ham faqat ikki bo‘lak –ega va kesim ishtirok etmoqda. Yuqoridagi gapdan farqli ravishda ega pozitsiyasidagi bo‘lak faqat bitta leksemadan – *Clearness* so‘zidan iborat bo‘lib, gap predikati (kesimi) bir necha substansional shakllarning o‘zaro birikishidan hosil bo‘lgan: *main value of speech*. Bunda *speech* va *main* leksemalari *value* leksemasiga ergashib, aniqlovchi-aniqlanmish munosabati ifodalanayapti.

Aniqlanmishga bog‘lanuvchi vositalar ikki xil tarzda –qaratuvchi+qaralmish, shuningdek, sifatlovchi+sifatlanmish ko‘rinishida munosabatga kirishmoqda: *value of speech* (qaratuvchi+qaralmish), *main value* (sifatlovchi+sifatlanmish) har ikki birikma –qaratuvchili birikma ham, sifatlovchi birikma ham yaxlit shaklda gap predikati funksiyasini bajaryapti. Butun gap bo‘laklarining o‘zaro munosabatini shunday belgilash kerak:



Ma'lumki, aniqlovchi predmetning belgisini anglatadi. Bunda belgi predikativ yo‘li bilan emas, balki atributiv yo‘l bilan reallashadi. Bu xususiyat sifat orqali ifodalangan aniqlovchilarda ayniqsa xarakterlidir.

Prof. A.I.Smirnitskiy ingliz tilida aniqlovchining pozitsiyasini belgilash uning muayyan ko‘rsatkichlari mavjud bo‘lmaganligi sababli, gapdagi o‘rni asosida amalga oshirilishi zarur ekanini ko‘rsatib o‘tadi<sup>44</sup>.

Jumladan, *iron* so‘zi o‘rni bilan ot (rus tilida железо), o‘rni bilan sifat (rus tilida железный) bo‘lishi ayni vaqtda turkumga mansubligi asosida uning vazifasi qisman aniqlanishi mumkin.

*iron* (железо) –ot –material turi

*iron door* (железная дверь) –sifat –belgi.



Biroq har qanday belgi anglatuvchi leksemaning (xususan ot yoki sifatning) pozitsiyasini ma’lum ma’noda oydinlashtirish, ya’ni uning to‘ldiruvchi (yaxshi temirdan yasalgan), ega (temir –qattiq metall) yoki aniqlovchi (temir sandiq)

<sup>44</sup> Smirnitskiy A.I. Sintaksis angliyskogo yazika. –M., 1957.

vazifasida kelishi leksema ifodalayotgan ma'no asosida yuzaga chiqsa-da, ingliz tili sintaksisida eng qulay usul belgi anglatuvchi so'zning o'rni ekanini ta'kidlash zarur. Bu ayniqsa, sifat leksemalarda aniq namoyon bo'ladi.

Gap bo'laklari tartibini o'zgartirish natijasida permutatsiya transformatsiyasi ro'y beradi. Bunda gapning argumentiga argument sanalgan sifatlovchi-aniqlovchi markaziy nuqta bo'lgan predikatga aylanadi:

*Sun wind had etched his face* (O.H 212-p)



Ko'rinadiki, dastlab, *Sun* leksemasi o'zi bog'lanayotgan *wind* leksemasi bilan birga, gapda hol pozitsiyasida xuddi ega pozitsiyasidagi *his* leksemasi kabi tobe bo'lak (*Sun* so'zi tobe bo'lakning ham tobe qismi) sifatida mavqe egallasa, tartib o'zgarishi natijasida gapning markazi hisoblangan kesim sifatida mutloq hokim bo'lakka aylanayapti.

Sifatdosh aniqlovchilar ham atributivlik belgisi bilan birga, predikativlik xarakteriga ega. A.A.Shaxmatov sifat aniqlovchini atributiv, sifatdosh aniqlovchini predikativ-atributiv aniqlovchi deb atashni tavsiya etgan edi.<sup>45</sup>


<sup>45</sup> Bu haqda qarang: G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T.: O'qituvchi. - 1987, 103-bet.

L.Tenyer esa atributiv aniqlovchi sifatida ishlatiluvchi otlar bilan bir qatorda sifatdosh va ravishdoshlarni ham ko'rsatadi.<sup>46</sup>

*Heathenish woman, how right they were to give you that outstanding name* (A.P 76-p) gapida *to give* predikatiga ega pozitsiyasidagi *they*, to'ldiruvchi pozitsiyasidagi *you* bo'lagi bog'lanib kelayapti, *Heathenish woman* undalmasi esa gapning boshqa bo'laklari bilan sintaktik aloqaga kirmaydi. Sifatdoshning bo'lishsiz shakli orqali berilgan sifatlovchi-aniqlovchi o'zi bog'lanib kelayotgan *name* leksemasi bilan yaxlit holda butun gap uchun to'ldiruvchi bo'lib kelmoqda. Ushbu qurilmaning markazida turgan leksema *name* so'zi *outstanding* sifatlovchisini o'ziga ergashtirib, unga nisbatan hokim vaziyatida, gapning predikati tomonidan boshqarilib, butun gapda tobe vaziyatida turibdi.

*Outstandish name to give*

Buni L.Tenyer sxemalari asosida sxemalashtirsak, ham tik, ham yotiq (yoyiq) holdagi chiziqlar hosil bo'ladi:



Ilmiy grammatikalarda sifatdoshning ba'zan o'ziga tobe so'zlar –maxsus hol, to'ldiruvchi qabul qilib yoyiq tusga kirish va sifatdosh oborotni hosil qilish e'tirof etiladi.<sup>47</sup>

<sup>46</sup> Tenyer A. Yuqoridagi asar. 168-bet.

<sup>47</sup> Ivanova I.P., Burlakova V.V., Pochensov G.G. Теоретическая грамматика английского языка. М., 1981. –С. 125.

Ayni shu to'ldiruvchi va holni o'ziga ergashtirib, tobelik hosil qilishni e'tiborga olsak, gap bo'laklari iyerarxiyasi yana bir necha bosqichga ortadi.

*This two ladies with a third, Mrs. Whiting, were the pillars of Atlanta* (S.M. 18-p) Berilgan gapda *were* predikatiga ilova pozitsiyasidagi *with a third, Mrs. Whiting* qurilmalari ergashib kelyapti. Dastlabki birikmada *ladies* qaratuvchisi *this* qaralmishi bilan yaxlit pozitsiyani egallayapti, *ladies* leksemasi o'z qaratuvchisi uchun hokim bo'lgani holda, tobe elementi bilan birga predikat argumenti bo'lib kelyapti.

I.B.Dolinins qayd etganidek, sodda gaplardagi ustama predikatsiya muayyan asosga egadir. Bunday gaplarda bir predikat ikkinchi predikatning semantiye aktanti (argumenti) mavqeida keladi. Natijada predikatlarning o'ziga xos darajalanishi yuz beradi. Predikatlarda darajalanishida aktant pozitsiyasida kelgan predikat ustama predikat, ustama predikat tipidagi aktantga ega bo'lgan predikat asosiy predikat hisoblanadi. Propozitsiyalar miqdori esa gapdagi predikatsiyalar miqdoriga teng bo'ladi.<sup>48</sup>

Berilgan gapda ham ikkita propozitsiya mavjud: *the two ladies with a third, were the pillars of Atlanta.*(G-123-p) Birinchi propozitsiya ustama predikatsiya tarzida belgilanishi mumkin, u kesimlik shaklini yo'qotgan bo'lsa-da, gapni mazmunan murakkablashtirish uchun xizmat qilayapti.

Kesimlik shaklini yo'qotgan predikat (ustama predikatsiya) gapning gap bo'lagiga transformatsiyalanishi natijasida shakllanadi. Sifatdosh oborotlar odatda, o'z mazmunini saqlagan holda gaplarning bo'laklarga transformatsiyalanishi orqali yuzaga keladi. Bunday transformatsiya nominalizatsiyaya transformatsiyasi deb yuritiladi.<sup>49</sup>

Yuqoridagi gapda ham *the two ladies with a third* tarzidagi gap yaxlit bitta pozitsiyani (ega) egallashi bilan gap shaklan o'zgargan.

---

<sup>48</sup> Sistemniy analiz predlojeniya. M., 1977. –C. 158.

<sup>49</sup> Transformatsiya xususida qarang: Chomsky H. The Science of Language. Cambridge, 2012.

Derivatsiya hodisasi sintaksisda gap mazmunining o'zgarishi (mazmun o'ttirilishi) bilan belgilansa, transformatsiya gap shaklining o'zgaruvi asosida qayd etiladi. Transformatsiyaning har qanday turida muayyan mazmun saqlanadi.

1.Nominalizatsiya transformatsiyasi -gapning birikma yoki bo'laklarga aylanishi, predikatsiyaning yo'qolishi yoki ustama predikatsiyaning vujudga kelishi. Masalan: *My friend arrived – arrival of my friend.*

2.Permutatsiya transformatsiyasi -gap bo'laklari tartibining o'zgarishi, bunda ba'zan aniqlovchi-aniqlanmish shaklli yagona pozitsiyada keluvchi qurilma ega-kesim munosabatidan tashkil topgan gapga aytiladi:

*A smart boy –the boy is smart; clean air – the air is clean.*


3.Kengaytirish transformatsiyasi -gap bo'laklarining muayyan xususiyatlarini aniqlash maqsadida ularga biron (bir necha) vosita qo'shiladi: *my sister came –my sister came yesterday; streets are clean –this city's streets are clean.*

4.Soddalashtirish transformatsiyasi -vaziyat talabi bilan gapdagi ayrim bo'laklar tushiriladi: *He will come back in week –He will come back.*

I.B.Dolininaning kitobida<sup>50</sup> keltirilgan *He thought of their shabby homes, their long hours, their poor pay* gapida atributiv tuzilmalar uyushiq bo'laklar o'rnini egallamoqda. Uyushiq bo'laklarining joylashuvi odatda bir necha propozitsiyaning ifoda topishiga sabab bo'ladi:


1) *thought of their shabby homes*; 2) *thought of their long hours*; 3) *thought of their poor pay*.

Bu xildagi propozitsiyalar ifodasida predikat bo'lak markazni egallaydigan bo'lsa, gap qismlari o'rtasidagi munosabatlar quyidagi ko'rinishni oladi:



<sup>50</sup> Dolinina I.B. Uk.soch., s.90.

Ushbu munosabatlar qatorini A.M.Muxin taklif qilgan yuniksion model tasvirida berilsa gapning sintaktik “qiyofa”si yanada aniqroq ko‘rinishni oladi<sup>51</sup>:




*In recent years three books have appeared* (K.R.K. 197-p) gapida *have appeared* predikati ega pozitsiyasidagi *books*, hol pozitsiyasidagi *In recent years* vositalarini ergashtirib kelyapti. Son+ot tipidagi qurilma o‘z ichida yana ichki bog‘lanishlarga ega: *three* sifatlovchisi *books* leksemasining argumenti bo‘lib, unga nisbatan tobelik munosabatida. Shunga ko‘ra, aniqlovchi gapning emas, bo‘lakning bo‘lagi -argumentning argumenti sifatida gap bo‘laklari iyerarxiasini hosil qiladi:

*The Colonel knew perfectly well the meaning of the question* (G 124-p). Ushbu gapda *knew* kesimiga *perfectly* (hol), *the colonel* (ega), *meaning of the question* (to‘ldiruvchi) birliklari o‘zaro tobelik munosabatida bo‘lib, ular ichida to‘ldiruvchi pozitsiyasidagi *meaning of the question* qurilmasi sifatlovchi-sifatlanmish shaklli ichki bog‘lanishni hosil qiladi. Sifatlovchi funksiyasidagi *of the question* leksemasi gap kesimiga bevosita emas, bilvosita bog‘langani sababli, o‘zi bog‘lanayotgan *meaning* leksemasining argumenti sanaladi. Ayni vaqtda, *meaning* лексемасининг o‘zi ham *knew* predikatiga ergashgan holda uning “bo‘sh o‘rin”larini to‘ldirib, argument bo‘lib kelyapti. Ko‘rinadiki, ot turkumi bilan ifodalangan, aniqlovchi pozitsiyasidagi bo‘lak *of the question* leksemasi kesimga tobe bo‘lgan, o‘zi ergashgan leksema *meaning* so‘zining kengaytiruvchisi hisoblanadi va ega pozitsiyasidagi bo‘lak doirasiga kirib bo‘lakning bo‘lagi mavqeini egallaydi.

<sup>51</sup> Muxin A.M. Lingvisticheskiy analiz. Teoreticheskiye i metodologicheskiye problemi. L., 1976; Muxin A.M. Eksperiment i modelirovaniye v lingvistika. Strukturniy sintaksis predlozheniya. SPB., 2004.

Berilgan gapni quyidagi sxema orqali ifodalash mumkin:



Bu yerda: N – ot

Pchop – olmosh

Uf – fe'l-kesim

N<sub>um</sub> – son

*His first impulse was to cross to the other side* (A.Ch 154-p) gapida son ishtirok etayotgan qurilma tarkibida qator ichki bog‘lanishlar mavjud. Uning tayanch nuqtasi ot bilan ifodalangan *impulse* leksemasi sanalib, unga *his*, *first*, *side* leksemalari bog‘lanmoqda. *His* leksemasi *impulse* otiga bog‘lanishi bilan qaratuvchi-qaralmish munosabatidagi ot+ot birikmasi, *other* leksemasining *side* so‘ziga bog‘lanishi orqali sifatlovchi-sifatlanmish munosabatli sifat+ot shaklli ifoda, shuningdek, *the first* yaqin tartib sonining *impulse* leksemasiga bog‘lanishi vositasida sifatlovchi-sifatlanmish munosabatidagi son+ot tipli tuzilma yuzaga chiqadi.


Ushbu bir necha tipli yoyiq tUSDagi birikma *was to cross* leksemasiga, ya’ni gapning asosiy predikatiga bog‘lanib *other side* leksemasi singari faqat bitta vaziyatni egallashi bilan xarakterlanadi: *the other side* leksemasi hol pozitsiyasida, *his first impulse* ega pozitsiyasida kelyapti. Qurilma doirasidagi aniqlovchilarning barchasi - *other* qaratuvchisi ham, *first* sifatlovchisi ham o‘z mavqeini butun gapga nisbatan *impulse* leksemasining vazifasi orqali belgilaydi. Chunki ular gap kesimi (predikati)ga bevosita emas, bilvosita bog‘lanyapti. Bu bog‘lanish

aniqlovchi vazifasida kelayotgan ushbu leksemalarni bo‘lakning bo‘lagi sifatida e’tirof etish imkonini beradi.

Ravish+ot shaklli birikmalar ko‘p jihatdan yuqoridagi qurilmalarga yaqin turadi. Ilmiy manbalarda ravish harakat-holat belgisini bildirib, asosan fe‘lga bog‘lanishi qayd etiladi.<sup>52</sup>

Anglashiladiki, ravish+ot tipli birikmalar o‘zbek tilida juda kam uchraydi.

... *they were the only men left alive from their platoons* (E.S p-173) gapida *left alive* predikatiga *they* (ega), *from platoons* birikmalari ergashib, uning argumenti sifatida yuzaga chiqayapti. Ega pozitsiyasida turgan *they* ifodasi o‘z ichida tobelik munosabatini hosil qiladi. Bu o‘rinda mavhum miqdor anglatuvchi leksema *only men* leksemasiga bog‘lanib, uning argumenti hisoblanadi, aniqlovchi-aniiqlanmish munosabatli ravish+ot<sup>53</sup> shaklli qurilma gap predikatiga nisbatan yaxlit bitta vaziyatni egallaydi. Uning kengaytiruvchisi bo‘lgan *only* argumenti kesimga bilvosita bog‘langani sababli bo‘lakning bo‘lagi mavqeida keladi.



Bu yerda: N – ot

Uf – fe‘l kesim

AdU – ravish


*I addressed a meeting here last night* (H.G p-234). Ushbu gap kesimiga ega pozitsiyasidagi *I*, to‘ldiruvchi pozitsiyasidagi *a meeting here* birikmalari ergashib kelyapti.

<sup>52</sup> Yusupov U. Ingliz tili grammatikasidan universal qo‘llanma. T., 2011.

<sup>53</sup> Ayrim o‘zbek tili grammatikalarida miqdor bildiruvchi oz, ko‘p, mo‘l, kam (talay ham) kabi so‘zlar ravish turkumiga kirmasligi qayd etilgan. Qarang: Shoabdurahmonov Sh. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. I qism. T.: O‘qituvchi. -1980. 403-bet.

Har ikki birikma ham o'z kengaytiruvchisiga ega bo'lib, ichki bog'lanishlar hosil qiladi. Olmosh+ot tipli dastlabki birlik (ular haqida quyiroqda alohida so'z yuritiladi) sifatlovchi-sifatlanmish munosabatidadir. Demak, *meeting* leksemasi o'z aniqlovchisiga (kengaytiruvchi) ega bo'lgan butunlik sanaladi. Ikkinchi birikmaning markazi hisoblangan *last night* ifodasi o'ziga *here* qaratuvchisini, shuningdek, *last* sifatlovchisini ergashtirishi natijasida ikki turdagi bog'lanish – ot+ot tipli qaratuvchili, ravish+ot tipli sifatlovchili birikish vujudga kelyapti.

Ushbu gapda bo'laklarning o'zaro aloqasini darajali tarzda belgilasak, ega vaziyatidagi bo'lak tarkibiga kiruvchi *last* aniqlovchisi (sifatlovchi) ham, to'ldiruvchi vaziyatini egallagan (bo'lak) qurilma doirasidagi *meeting* aniqlovchisi (qaratuvchi) ham, *here* aniqlovchisi (sifatlovchi) ham gap kesimiga bevosita bog'lanmaganini, ularni kesimga bog'lovchi aniqlanmishlari *meeting*, *night* mavjud ekanini ko'rishimiz mumkin. Bundan aniqlovchi vazifasidagi bo'laklarning gap predikati argumentlariga argument mavqeida turishi ayon bo'ladi. L.Tenyer ta'limoti asosida ushbu iyerarxiyani quydagicha belgilash maqsadga muvofiq:



Harakat nomi+ot shaklli birikish asosan qaratuvchi-qaralmish munosabatini hosil qiladi. Chunki harakat nomi harakat holatning atamasi hisoblanib, otlarga xos grammatik ko'rsatkichlarni qabul qila oladi.<sup>54</sup>


*History only emerged in the XVIII century as a literary art* (M. p-192) gapida kesim vazifasida kelayotgan *emerged* leksemasiga ega vaziyatidagi *History*, to'ldiruvchi vaziyatidagi *as a literary art* birliklari bog'lanmoqda. Qaratuvchi pozitsiyasidagi harakat nomi o'z ichida tushum kelishigi shaklidagi (ot) to'ldiruvchini boshqarib, u bilan birgalikda *literary* leksemasiga tobe bo'lib

<sup>54</sup> Hill A. Introduction to Linguistic Structures. New-York, 1988.

kelmoqda. Ayni zamanda, o'z kengaytiruvchilariga ega bo'lgan *literary* leksemasi ham gapning asosiy predikatiga tobe mavqeni egallayapti. Gap bo'laklarining darajali munosabati uch bosqichni vujudga keltiryapti.

Garchi harakat nomli qurilmalar ot+ot shaklli birikmalarga juda yaqin tursada, ular muayyan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Chunonchi, bunday birikmalarning mazmuniy asosi harakat ekanligi uchun, ularda xuddi sifatdoshli qurilmalar singari transformatsiya hodisasi kuzatiladi. Yuqoridagi gap qismlari doirasida ham *as a literary art* propozitsiyasi mavjud. Bu ifoda *art* leksemasi ta'sirida (yoki ma'lum situatsiya talabi bilan) transformatsiyaga uchragan, natijada gapda ustama predikatsiya vujudga kelgan.

Berilgan gap bo'laklarining darajali (iyerarxiyal) munosabatini quyidagicha sxemalashtirish mumkin:




Olmosh+ot tipidagi qurilmalar sifatlovchi-sifatlanmish va qaratuvchi-qaralmish munosabatida bo'lishi mumkin.

Маcалан: *His look was somewhat military* (Ch.D. p-173); ... *the moustache imparted a look to the beautiful face* (S.B. p-214).

Birinchi gapda qaratuvchi-aniqlovchi, ikkinchisida sifatlovchi-aniqlovchi ishtirok etmoqda. Ega pozitsiyasidagi *His look* qurilmasi *was somewhat* predikatiga argument sifatida unga tobelanib kelyapti. Olmosh orqali ifodalanuvchi

aniqlovchi o‘z aniqlanmishining kengaytiruvchisi tarzida bo‘lakning bo‘lagi hisoblanadi.

Ikkinchi gapning kesimi *imparted* leksemasi ega pozitsiyasidagi *the moustache*, to‘ldiruvchi pozitsiyasidagi *a look* ifodalarini o‘ziga bog‘lab kelayapti. Olmosh vositasida berilgan *beautiful* leksemasi sifatlovchi-aniqlovchi vazifasini bajarib, o‘z aniqlanmishining “bo‘sh o‘rin”larini to‘ldirmoqda. Aniqlovchi-aniqlanmish birgalikda predikatning argumenti sifatida yaxlit bitta pozitsiyani egallayapti. Kesimga bevosita bog‘lanmagan sifatlovchi-aniqlovchi esa bo‘lak tarkibida bo‘lak sifatida turibdi. Gap bo‘laklarining darajalanishi quyidagicha namoyon bo‘ladi:



Olmosh+ot shaklli qurilmalarning aniqlovchisi qaratuvchi bo‘lsa, ko‘p xollarda tobe ot (yoki otlashgan so‘zlar) turkumidagi so‘zlar o‘rnidagi olmoshlardan, agar sifatlovchi-aniqlovchi bo‘lsa, sifat o‘rnidagi olmoshlardan iborat bo‘ladi.


*Your duty starts tomorrow* (O’ Henry p-216) gapida *your* olmoshi shaxs o‘rnida qo‘llanib, xuddi u singari sintaktik mavqega ega bo‘ladi. *My son left me in this suffer* (Galsworthy p-190) gapidagi *this suffer* to‘ldiruvchisi o‘z ichida sifatlovchi-sifatlanmish munosabatidagi birikmani olyapti, u ham sifat+ot tipli qurilmalar tarzida yuzaga chiqadi.

Ba’zi hollarda qaratuvchi vaziyatidagi leksema (bo‘lakning bo‘lagi) qo‘llanmasligi ham mumkin, chunki qaralmishdagi egalik unga zaruriyat sezdirmaydi. Qaratuvchi kishilik va o‘zlik olmoshlari vositasida ifodalanganda faqat aniqlanmishning o‘zi ishlatilishi mumkin.

Taqlid soʻz+ot shaklli qurilmalar sifatlovchi aniqlovchining sifatlanmishga bogʻlanishi orqali yuzaga chiqadi. Taqlid soʻzlar sifatlanmish funksiyasidagi soʻzning (otning) belgisini aks ettirish uchun xizmat qiladi.

*He must buy immediately forth-and-back ticket*(G. p-12) gapida *must buy* kesimiga hol (vaziyat) pozitsiyasidagi *immediately*, ega pozitsiyasidagi *He* birliklari bogʻlanmoqda. Sifatlovchi-sifatlanmish munosabatidagi *forth-and-back ticket* leksemasining argumenti hisoblanadi. Chunki u gap kesimiga toʻgʻridan-toʻgʻri bogʻlanmay, u bilan bilvosita munosabatga kirishadi.

Ana shu munosabat gap boʻlaklarining darajali aloqasini taʼminlaydi.



Bu yerda: **N** – ot

AdU – ravish

Uf – feʼl-kesim

**O<sub>nom</sub>** – taqlid soʻz

## 2.2. ANIQLANMISHI SIFAT BO'LGAN QURILMALARDA ANIQLOVCHINING O'RNI

O'zbek tilida sifatlar aniqlovchi vaziyatida bo'lganda, ot turkumidagi so'zlarga bog'lanib kelishi juda ko'p uchraydi. *Rich atmosphere, brown atmosphere, white hair, great head, military kook, etc.*

Bu kabi sifat+ot shaklli ega+kesim bog'lanishidagi gaplar transformatsiya natijasida qaratuvchi-qaralmish munosabatidagi birikmaga aylanadi va gapda yaxlit pozitsiyani egallaydi. Odatda, bunday gaplarda ikki predikat mavjud bo'lib, biri kesimlik shaklini yo'qotgan bo'lsa, ikkinchisi kesimlik shaklini saqlagan bo'ladi. Kesimlik shaklini yo'qotgan predikat ot+sifat yoki olmosh+sifat tipida shakllanadi.


*Mrs. Greenfield knows about her husband's illness very well* (A.P. p-127) gapida *knows very well* kesimiga ega vaziyatidagi *Mrs. Greenfield*, to'ldiruvchi vaziyatidagi *husband's illness* birikmasi ergashib kelyapti. Gapning egasi va to'ldiruvchisi unga tobe holda bir xil mavqeda turibdi, ya'ni *knows very well* predikati uchun kengaytiruvchi argument funksiyasini bajaryapti. To'ldiruvchi pozitsiyasidagi bo'lak *husband's illness* esa o'z ichki bog'lanishiga qaratuvchi *husband's* va qaralmish (*illness*) munosabatidagi bog'lanishga ega bo'layapti.

Qaratuvchi-qaralmish ko'rinishidagi bu birikma dastlab *Her husband is ill* tarzidagi gap bo'lgan. Gapning bo'lak (birikma)ga aylanishi natijasida, transformatsiya tufayli ega (*husband*) qaratuvchiga (*husband's*), kesim (*ill*) qaralmishga (*illness*) o'zgaradi. Shuningdek, bu yerda *husband's illness* qurilmasi

tarkibidagi tobe vosita *husband's* leksemasi transformatsiya natijasida shakllangan gapning kesimiga bilvosita bogʻlanyapti, bu leksema *illness* leksemasining argumenti sifatida amal qilyapti. Birikmaning markaziy nuqtasi sanalgan sifat turkumidagi *ill* leksemasi oʻz argumentini ergashtirib gap kesimiga tobe vaziyatda turibdi, yaʼni predikatning - *knows very well* ifodasining argumenti boʻlib kelyapti.

Aniqlovchi argumentning argumenti boʻlib qolyapti. Biroq shaklan oʻzgargan, transformatsiyaga uchragan *Mrs. Greenfield knows about her husband's illness* gapida ikki propozitsiya saqlangan, demak, gapning mazmuni oʻzgarmagan.

Gapni quyidagi sxema orqali belgilaymiz va gap boʻlaklarining iyerarxiyasini koʻrishimiz mumkin:



Ot+sifat shaklidagi tuzilmalar baʼzan sifat+ot tarzidagi birikmalarning inversiyasi tufayli ham yuzaga kelishi mumkin. Masalan: *There came a girl with a face beautiful and attractive* (A.P. p-182) gapidagi *face beautiful* ifodasi gap doirasida mazmunan *beautiful* ifodasi bilan bir xil ahamiyatga ega. Tuzilmaning uyushtiruvchi markazi tarzida esa *face* leksemasi (ot) emas, balki *beautiful* leksemasi (sifat) amal qiladi. Har ikki holatda ham ushbu qurilma *came* predikatiga toʻldiruvchi sifatida xuddi hol pozitsiyasidagi *there* leksemasi singari argument sanaladi. Yuqoridagi kabi hollarda boʻlakning boʻlagi hisoblanuvchi, gap boʻlaklari iyerarxiyasini tashkil etuvchi element sifatlovchi-aniqlovchi substansional jihatdan ot yoki sifat turkumidagi soʻz bilan ifodalanishi orqali farqlanishi mumkin:

*With a face beautiful and attractive*

*A girl with a beautiful and attractive face*

Demak, ta'kidlab o'tilganidek, aniqlovchi o'zining muayyan shakliga ega bo'lmay, uning mavqei gapda tutgan o'rni vositasida belgilanadi. Unga asos sifatida ushbu gap bo'laklari almashinishini ham ko'rsatib o'tish mumkin.


Aniqlovchili qurilmalar ot va sifat turkumidagi so'zlar bog'lanishidan shakllanganda, yoyiq tusda kelishi ham uchraydi. Masalan: *Denny, now abroad, Knew nothing of the new degree* (A.C. p-134).

Berilgan gapda *knew* predikati ega pozitsiyasidagi *Denny*, hol pozitsiyasidagi *now abroad*, to'ldiruvchi pozitsiyasidagi *nothing of the new degree* vositalarini o'ziga ergashtirib kelyapti. To'ldiruvchi mavqeini egallagan bo'lak transformatsiyaga uchragan gap bo'lib, *a new degree* shaklida bo'lgan. Nominalizatsiya transformatsiya tufayli gap shaklan o'zgarib, bitta pozitsiyasiga o'tgan bo'lsada, mazmuniy ifoda saqlangan. Shunga ko'ra, ushbu gapda ikki predikatsiya mavjud.


Ikkinchi qurilma yuqoridagi gaplardan farqli holda (ularning aksariyati ikki substansional shakldan iborat) bir necha leksemalarning –ot (*nothing*),sifat (*new*), ot (*degree*) birikuvidan hosil bo'lgan.

Bu qurilmaning yoyiq tusda bo'lishi yoyiq gaplarning transformatsiyasi natijasidir. Birikmaning qanchalik yoyiq bo'lishi gap bo'laklari o'rtasidagi iyerarxiyani kuchaytirish, ya'ni bir necha daraja ko'paytirishga turtki bo'ladi.

Qarang:



Ushbu gapning qismlari o'rtasidagi sintaktik aloqalar yuniksiion modelda o'z aksini topadi<sup>55</sup>:



Demak, asosiy munosabat *Denny* va *knew* bo'laklari o'rtasida bo'lib, atributiv guruhdagi (*nothing of the new degree*) aloqalar tasviri aniqlovchidan aniqlanmish sari yo'naladi.

<sup>55</sup> Muxin A.M. Funktsionalniy sintaksis. SPb., 1999.

### 2.3. ANIQLANMISHI SON BO'LGAN QURILMALARDA ANIQLOVCHINING O'RNI.

Bunday qurilmalar predmet bilan uning miqdori o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi.

Son orqali ifodalanayotgan aniqlanmishlar deyarli otlashish xarakterida bo'lgani sababli, ularning grammatik xususiyatlari ko'p jihatdan ot – aniqlanmishlarga yaqin turadi. Masalan: *Five of the girls were awarded with prize* (R.L.S.p-234) gapidagi qaratuvchi-qaralmish munosabatidagi birikma *were awarded* kesimiga *prize* leksemasi kabi ergashib kelyapti.

Birikmaning o'zi ot+son tipli bog'lanish hosil qilib, otlashgan son ot turkumidagi *girls* leksemasiga aniqlanmish tarzida yuzaga chiqayapti va predikatning kengaytiruvchisi vazifasini bajaryapti.

Shuningdek, *One of those animals once seemed him a very attractive animal* (Maugham p-212) gapida ham *one of those animals* qurilmasi tarkibidagi otlashgan songa (*one*) *those* olmoshi va *animals* ot leksemasi bog'lanayapti. Olmosh otning aniqlovchisi (sifatlovchi) sifatida *of those animals*, ular yaxlit holda *one* leksemasining aniqlovchisi (qaratuvchi) sifatida - *one of those animals* tarzida shakllangan. Ushbu qurilma gap kesimi *seemed* leksemasiga ega vaziyatida bog'lanib, payt holi pozitsiyasidagi *once*, tarz holi pozitsiyasidagi *very attractive animal*, to'ldiruvchi pozitsiyasidagi *him* ifodalari singari argument vazifasini bajaradi. Son turkumidagi leksemaning kengaytiruvchisi kesimga bevosita bog'lanmay, gap bo'laklari o'rtasidagi iyerarxiyani ta'minlaydi. Tarz holi vazifasini bajaruvchi qurilma ham o'z aniqlovchilariga ega:

*attractive*

*animals*

*sifatlovchi*

*sifatlanmish*

*very attractive animal*

*sifatlovchi*

*sifatlanmish*


*attractive*

*animal*

*sifatlovchi*

*sifatlanmish*

Endi gapdagi umumiy darajalanishni ko'ramiz:



Бу ерда:

N –ot

Prn –olmosh

Adj –sifat

Num –son

Adv –ravish

Vf –fe`l kesim

Gapning yunksion modelini keltiramiz:

*One of those animals seemed him very attractive animal*



## 2.4. ANIQLANMISHI RAVISH BO'LGAN QURILMALARDA ANIQLOVCHINING O'RNI


Ravishlar ingliz tilida juda kam qo'llaniladi, ularning o'zi odatda fe'llarga bog'langani holda, ot, ot o'rnidagi olmoshlar va harakat nomini ergashtirib keladi.

*The idea seemed highly improbable to everybody* (H.G. p-221) gapida predikat *seemed* ifodasiga o'rin holi pozitsiyasidagi *to everybody*, эга pozitsiyasidagi *The idea* birliklari tobelanib kelyapti.


O'rin holi vaziyatidagi birikma qaratuvchi-qaralmish munosabatidagi ot+ot tipli qurilma orqali berilsa, sabab holi vaziyatida kelayotgan birikma qaratuvchi-qaralmish munosabatidagi ot+ravish shaklli ifoda orqali berilyapti va har ikki qurilma butun gapga nisbatan yaxlit pozitsiyalarni bajarish uchun xizmat qilyapti. Ot+ravish tipli birikma dastlab ega-kesim munosabatidan iborat gap bo'lib, nominalizatsiya transformatsiyasi natijasida gap birikmaga aylangan. Bu gapda ham ikkita propozitsiya mavjud.

Ko'rinadiki, *to everybody* birikmasi ham *highly improbable* birikmasiga ergashib, uning argumenti sifatida amal qilyapti. Ularning barchasi yoyiq tusda faqat bitta pozitsiyani egallash uchun xizmat qilyapti. Ushbu ifodaning birliklari o'rtasidagi sintaktik munosabatga e'tibor qilamiz:

*The idea seemed highly improbable to everybody*




Qurilmaning ichki bog'lanishlari gap doirasidagi iyerarxiyani yuzaga chiqaradi:




*to everybody*


Ushbu gap bo'laklari o'rtasidagi iyerarxiyaning o'ziga xosligini sxema vositasida yanada aniqroq kuzatish mumkin:



*Through a space in the trees I could so the house door; it was widely open*(A.C.p-134) gapida ham ikkita propozitsiya mavjud. Bular ichida asosiy predikatsiya ikkinchisi bo'lib, birinchisi gap transformatsiyasiga uchragan. Gap egasi *I* leksemasi qaratuvchiga, kesim pozitsiyasidagi *widely* leksemasi qaralmishga aylangan. *Widely* leksemasi qaratuvchisi bilan birga *the house door* vositalarni ham o'ziga ergashtirib kelyapti.

Bu o'rinda nafaqat aniqlovchi, uyushtiruvchi markazga tobe bo'lgan to'ldiruvchi pozitsiyasidagi bo'lak ham o'z mavqeini yo'qotgan va *widely* ravishning kengaytiruvchisi vazifasini bajarmoqda. Yoyiq tUSDagi ega pozitsiyasidagi bu qurilma yana bir bosqichga ortgan, ya'ni *widely* argumentining argumenti sanalgan *open* birligiga *house door* sifatlovchi uchunchi argument tarzida xizmat qilyapti. Gap bo'laklari o'rtasidagi umumiy bog'lanishga e'tibor bering:





The well some hundred meters deep to get to the water (K.R.K. p-253) gapida *well to dig* qurilmasi bog‘lanmoqda. Ushbu qurilmada ham ichki bog‘lanish mavjud: olmosh+ravish tipidagi qaratuvchi-qaralmish munosabati ustama predikatsiyani shakllantirmoqda. Bu yerda ravishga kelayotgan olmosh ot o‘rinda qo‘llangan bo‘lsa-da, bu o‘rinda otlashgan son bilan ham uni almashtirish mumkin.

*hundred* ————— *deep*  
*metres* —————


Gapda ravishga bog‘lanib kelayotgan tobe bo‘lak bo‘lakning bo‘lagi sanaladi, ya’ni

Bu yerda:

Prn –olmosh

Adv –ravish

Vf –fe‘l kesim.




The well-known Russian musical critic Stasov was a highly educated man (A.P. p-94) gapida esa *was a man* predikati aniqlovchi vaziyatidagi *highly educated* ifodasini o‘ziga ergashtirib kelyapti. Gap kesimiga bog‘lanib kelayotgan ushbu ifoda o‘z ichida bir necha tobe munosabatni yuzaga keltiradi. Yuqoridagi gaplar kabi ushbu birikma ham ega-kesim munosabatidan iborat bo‘lib, nominalizatsiya transformatsiyasi natijasida qaratuvchi-qaralmish munosabatli birikmaga aylanib qoldi.


Qurilmagan yanada chuqurroq e'tibor qilsak, qator darajali munosabatni ko'rishimiz mumkin: *highly* leksemasi *educated* leksemasining sifatlovchisi, olmosh+ot tipidagi *critic* ifodasi *musical* leksemasining qaratuvchisi, *musical critic* qurilmasi *highly* ravishining qaratuvchisi bo'lib, qurilma yaxlitligicha predikat argumenti sanaladi. Gapdagi *highly* leksemasidan boshqa barcha bo'laklar o'z kengaytiruvchisiga ega bo'lmoqda.

Demak, har qaysi aniqlovchi kesimga bevosita bog'lanish imkoniyatiga ega emas, bog'lanish uchun xizmat qiluvchi muayyan birliklar mavjud:

*The well – known Russian musical critic Stasov*




*Stasov was a highly educated man*



## 2.5. ANIQLANMISHI OLMOSH BO‘LGAN QURILMALARDA ANIQLOVCHINING O‘RNI

Olmoshlar o‘z aniqlovchisiga ega bo‘lganda ular asosan o‘zlik, so‘roq va ko‘rsatish olmoshlari vositasida ifodalanadi va ot+olmosh hamda olmosh+olmosh tipidagi qurilmalarni shakllantiradi.

*In that great London, what time had they to be sentimental* (Galsworthy p-216) gapida *had* predikatiga hol pozitsiyasidagi *in London*, ega pozitsiyasidagi *time* bo‘laklari tobelanib kelyapti.



Demak, gap bo‘laklari o‘rtasidagi darajali munosabatining yuzaga chiqishida aniqlovchining o‘rni juda muhim.

*I looked at her-at her, and at none other, from that moment* (A.C. p-69). Bu gapda , *from that moment* (hol), *I* (ega) birikmalari kesimga (*looked*) tobelanib kelyapti. Har ikki birikma o‘z doirasida ichki bog‘lanishlarga ega. Ikkinchi ifoda o‘z ichida ot+olmosh tipli qaratuvchi-qaralmish munosabatidan iborat. *That* aniqlovchisi yuqoridagi aniqlovchilar kabi gap kesimiga bilvosita –*moment* leksemasi orqali bog‘lanadi, shunga ko‘ra, ega pozitsiyasidagi uyushtiruvchi markaz tarkibida kengaytiruvchi argument funksiyasini bajaradi. *Moment* leksemasi kengaytiruvchisi bilan birga kesim uchun kengaytiruvchi sanaladi.

*Each of these ladies held fans in their hands with some touch of colour* (Galsworthy p-95) gapidagi predikat *held* birligi ega pozitsiyasidagi *each of these ladies* hamda to‘ldiruvchi pozitsiyasidagi *fans* leksemalarni bo‘ysundirib kelyapti.

Ular predikatning argumenti sifatida uning bo'sh o'rinlarini to'ldirish uchun xizmat qildi. Ega vazifasini egallovchi bo'lak *each of these ladies* shaklidagi predikativ munosabatli gap sifatida bo'lib, gapning gap bo'lagiga transformatsiya qilinishi natijasida qaratuvchi-qaralmish munosabatidagi olmosh+olmosh tipidagi birikmaga aylangan va yaxlit holda faqat bitta pozitsiyani egallashga o'tgan. *Each* aniqlovchisi gap kesimi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'lanish imkoniyatiga ega emas, bundan darajali munosabat yuzaga chiqadi.

Berilgan gaplar va ularning tahlilidan ma'lum bo'ldiki, olmoshlar aniqlovchi-aniqlanmish munosabatidagi ifodalarning tobe yoki hokim mavqeidagi bo'lak bo'lishidan qat'iy nazar, otlar, otlashgan so'zlar o'rnida bo'lsa, otlar kabi sifatlar o'rnida bo'lsa, sifat kabi grammatik yuklanmani o'z ustiga oladi.

## **II –BOB YUZASIDAN QISQA XULOSALAR**

1. Aniqlovchili qurilmalarda aniqlanmish uyushtiruvchi markaz hisoblanadi va uning substansional shaklini alohida tasniflash katta ahamiyatga ega.

2. Ingliz tilida aniqlanmish ot bo'lgan qurilmalar juda ko'p uchraydi, bunday qurilmalarda aniqlovchi substansional jihatdan ot (ot+ot, sifat+ot, sifatdosh+ot, son+ot, ravish+ot, olmosh+ot, taqlid so'z+ot), son (ot+son, olmosh+son), ravish (ot+ravish, harakat nomi+ravish), olmosh (ot+olmosh, olmosh+olmosh), modal so'z (ot+modal so'z) dan shakllanishi mumkin.

3. Sodda gaplarda argumentlar o'z ichki argumentiga ega bo'lishi, bir predikat ikkinchi predikatning argumenti pozitsiyasida kelishi ham uchraydi.

4. Bunday qurilmalar yoyiq tusda bo'lganda, kengaytiruvchi argumentlar ortib boradi va gap bo'laklari o'rtasidagi pog'onali (iyerarxik) munosabat yanada chuqurlashadi.

### **III-BOB. GAPNING MAZMUNY TUZILISHIDA ATRIBUTIV UNSURLARNING O'RNI**

#### **3.1. BELGI UZVLI ARGUMENTLAR**

Predikatlar, odatda, ham paradigmatic, ham sintagmatik a'zolari o'zida aks ettiradi. Shu sababli u gap yoki uning ayrim qismlarining konstruktiv markazi sifatida maydonga chiqadi. Argumentlar esa ularning faqat umumiy sintagmatik, semantik semalarini reallashtiradi.

Bu esa predikat mavhum semantik-sintaktik sintagma asosi, argumentlar esa ularning semantik valentliklarini konkretlashtiruvchi, reallashtiruvchi ekanligini ko'rsatadi.<sup>56</sup>

Ma'lumki, ko'p predikatli sodda gaplarda bir predikat ikkinchi predikatning argumenti pozitsiyasida keladi, natijada o'ziga xos predikatlar darajalanishi vujudga keladi.

Sodda gaplarda argumentlar o'z ichki argumentiga ega bo'lganda, predikativlik belgisiga ega bo'lishi ham, predikativlik belgisiga ega bo'lmasligi ham mumkin. Bu holda argumentlarning predikativlik belgisiga ega bo'lishi sodda gaplarning gap bo'lagiga transformatsiyasi natijasi orqali belgilanadi.

Aniqlovchi pozitsiyasidagi bo'laklar har ikki holda ham uchraydi. Ko'p hollarda aniqlovchi sifatlovchi bo'lganda transformatsiya hodisasi kuzatilmaydi (sifatdosh oborotlardan tashqari).

Har qanday predmet yoki hodisa o'z belgisiga ega bo'ladi. Belgi uzvli argumentlarning shakllanishida ot turkumidagi leksemalar belgi valentligining reallashuvi muhim. Biroq belgi uzvining substansional shakli faqat sifat uchun

---

<sup>56</sup> Qarang: Slyusareva N.A. Problemi funktsionalnogo sintaksisa sovremennogo angliyskogo yazika. M., 1981. S.69.

xoslanmay, son, ravish, fe'l yoki ot bo'lishi mumkin. Ma'no jihatidan ular xususiylar, hajm, maza, hid, holat, rang-tus kabi guruhlardan iborat.

*I am speaking about the big girl, not the little one (T.D. p-69)* gapida speaking predikatining “bo'sh o'rin”larini to'ldirish uchun *little one* va *big girl* ifodalari xizmat qilyapti. Har ikki qurilma ham o'z ichki bog'lanishlariga ega: to'ldiruvchi pozitsiyasidagi *big girl* birikmasida *girl* leksemasining belgi valentligi *big* belgi ifodalovchi leksemasi reallashyapti. *Girl* leksemasi *speaking* predikatining argumenti sifatida uning subyekt valentligini to'ldirgani holda, sifatlovchi funksiyasidagi *big* leksemasi (sifat) uning kengaytiruvchi argumenti sanaladi. Umumiy “belgi” arxisemasi asosida bir paradigmaga birlashgan leksik-semantik guruh tarkibidagi har qaysi leksik-semantik variant qaysi leksik-semantik guruh tarkibidagi qanday leksik-semantik variant bilan sintagmatik munosabatga kirishuviga ko'ra bir-biridan farqlanadi. “Belgi” arxisemasi ostida birlashgan leksik-semantik variantning boshqa leksik-semantik variantga bog'lanishi uchun sintagmatik munosabatga kirishuvchi har ikki leksik-semantik variantda sintagmatik munosabatga kirishuviga yo'l beradigan semalar uyg'unligi, ya'ni har ikkisida takrorlanadigan sema mavjud bo'lishi kerak. Ana shunday semani ayrim mualliflar klassemaga atamasi bilan nomlaydilar.<sup>57</sup>

Yuqoridagi gapda ham *big* leksemasi tarkibida “belgi” arxisemasi bilan birga, “hajm” semasi mavjud bo'lib, bu yerda “shaxs” umumiy semasiga xos muayyan valentlik to'ldirilyapti.

*Meanwhile she was the gayest and most admired woman (J.P p-112).* Ushbu gapda predikat argumentlari sifatida quyidagi birliklarni ko'rsatish mumkin: *the gayest woman; most admired woman; meanwhile*. Har qaysi birlik o'z ichida ma'lum bog'lanishlarga ega. Ega pozitsiyasida kelayotgan birinchi qurilmaning uyushtiruvchi markazi *woman* leksemasiga xos “bo'sh o'rinlar” qaratuvchi uzv *gayest* va belgi uzvi *admired* leksemalari (sifat) vositasida to'ldirilyapti. Bu yerdagi belgi anglatuvchi *gayest* leksemasi tarkibida umumiy “belgi” arxisemasi

---

<sup>57</sup> Qarang: Gak V.G. Teoreticheskaya grammatik fransuzskogo yazika. Sintaksis. M.: -1981, str.144.

bilan birga, “holat” semasi ham mavjud. Yuqorida berilgan *big* leksemasidan farqlovchi xususiyat ham shunda. Keyingi ifoda *most admired woman* ham bir necha darajali bog‘lanishdan iborat. Tayanch markaz *woman* leksemasining kengaytiruvchilari *admired* va *the most* argumentlari hisoblanadi, ular leksemaning obykti (*woman*), belgi valentligini yuzaga chiqargan. Ayni vaqtda, *admired woman* sifatlovchili birikmasi ham ichki bog‘lanishga ega bo‘lib, unda *admired* leksemasi *woman* leksemasiga xos belgi valentligini yuzaga chiqaryapti. Ushbu birikmaning substansional shakli Pat+N tipli bo‘lsa-da, *admired* leksemasi muayyan tur ifodasi uchun xizmat qilgani sababli, bu vaziyatda belgi mikromaydoniga kiritilishi va bunga ko‘ra, “belgi” arxisemali leksemalarning funksional xususiyatlariga ega bo‘lishi mumkin.

Olimlar belgi bildiruvchi uzvlarni qator leksik-semantik guruhlariga ajratadi: umumiy ijobiy bahoga ega bo‘lgan LSG (leksik-semantik guruh), noodatiy belgi anglatuvchi LSG; predmetning tashqi belgisini bildiruvchi LSG; aqliy tavsif anglatuvchi LSG; subyekt bahosini bildiruvchi LSG; emotsional qobiliyat bildiruvchi LSG va boshq.<sup>58</sup>

Shu kabi LSGlar vositasida “belgi” valentligiga ega bo‘lgan leksemalarning farqlovchi semalarini aniqlash maqsadga muvofiq. Berilgan gaplar tarkibidagi belgi anglatuvchi leksemalar ham ma’lum semasi orqali shu kabi guruhlardan biriga taalluqli bo‘ladi: *big*-(hajm); *black* –(rang-tus); *gayest*-(tur); *unequal*-(holat) kabi.

Ralf Long ot predikatlar tarkibida belgi ifodalovchi leksemalarning predmetga xos bo‘lgan turli xarakter-xususiyatini bildirish, xarakter-xususiyat bildiruvchi predikatlar ham turli ma’no nozikliklariga ega bo‘lishini ta’kidlaydi<sup>59</sup>: *So he was strong, quick and quiet soldier* (S.R p-79).

Bunday hollarda ham belgi anglatuvchi uzvlar predikat tarkibida kelib, nofunksional mavqega ega bo‘ladi. Ushbu gapda predikati *strong, quick and quiet*

---

<sup>58</sup> Bogdanov V.V. Semantiko-sintaksicheskaya organizatsiya predlozheniya. L., 1977. –S. 29.


<sup>59</sup> Long R. The Sentence and Its Parts. A Grammar of Contemporary English. –Chicago, 1991. P. 317.

*soldier* qurilmasi belgi+predmet tarzida (sifat+ot) shakllanyapti, har qaysi belgi *soldier* predmetiga xos turlicha belgilarni reallashtirish uchun xizmat qilyapti, predmetga xos belgi valentligini yuzaga chiqaryapti:

strong soldier –jismoniy belgi

quick soldier –harakatni bajarish belgisi

quiet soldier – ruhiy emotsional belgi



Bunda:

S – Subyekt (predmet)

Ak –belgi


Pvk –predikat (kesimlik shaklida)

Demak, gapda ega vaziyatidagi subyekt bilan predikat bog‘lanishidan tashqari, predikat o‘z ichki bog‘lanishlariga ham ega bo‘lib, belgi uzvlar ichki subyektning kengaytiruvchilari vazifasida kelmoqda.

*A silver plate was brought to the table; with German plums* (Galsworthy p-116) gapida *was brought* predikatining argumentlari *to the table* leksemasi va aniqlovchi-aniqlanmish munosabatli *with German plums* birikmasi sanaladi. *German plums* birikmasidagi tayanch birlik *plums* leksemasi predmet ifodalovchi so‘z bo‘lib, uning belgi valentligi *German* leksemasi asosida yuzaga chiqayapti.

Ma‘lumki, *German* leksemasi (ot) joyning, predmet nomi hisoblanadi. Bu yerda predmet ma‘nosida emas, tur ma‘nosida kelib, *plum* leksemasining argumenti mavqeiga o‘tgan va ikkisi yaxlit holda (ega pozitsiyasida) predikat argumenti sifatida xizmat qilyapti.

Ko‘rinadiki, ayni shu nutq vaziyati uchun belgi uzvlar sirasida *German* leksemasi ham belgilanyapti va predikatga xos “tur” semasi bilan yuqoridagi “belgi” arxisemali semik guruhlardan ichki sema nuqtai nazaridan farqlanyapti. Gapdagi argumentlar munosabati quyidagicha:



*He saw the destroyed church on the opposite side of the road (W.Maugham p-19).*

Ushbu gapda *saw* predikativning kengaytiruvchilari ega pozitsiyasidagi *he*, to'ldiruvchi pozitsiyasidagi *church* va hol pozitsiyasidagi *the opposite side* ifodalari sanaladi, ular predikatning bo'sh o'rinlarini to'ldirish uchun xizmat qilyapti.


S.Inoyatov predikativ munosabat va kesimlik munosabatlari haqida so'z yuritib, predikativ munosabat kesimlik munosabatidan farq qilishini shunday izohlaydi: “kesimlik munosabatining amaliy ko'lami predikativ munosabatnikidan keng. Kesimlik munosabati nopredikativ tavsifdagi boshqa mantiqiy-grammatik hodisalarni ham o'z ichiga oladi. Masalan, obyektli munosabat to'ldiruvchi va kesim (fe'l kesim)ning, relyativ munosabat hol va kesimning o'zaro aloqasidan vujudga keladi”<sup>60</sup>. Transformatsiya natijasida predikatlarning gapda kesimlik shaklini saqlash yoki yo'qotish shuningdek predikatlarning mazmuniy imkoniyatlarni saqlash nuqtai-nazaridan esa predikativ munosabatga kesimlik munosabatiga nisbatan kengroq ko'lamda yondoshuv zarur bo'ladi.

Ko'rinadiki, gap tahlilida unga shakliy yoki mazmuniy aspektda yondashuv asosida masalaga ma'lum aniqlik kiritish mumkin.

Bu gapda ham, *the destroyed church* qurilmasi *church was destroyed* tipidagi sodda gapning transformatsiya qilinishi natijasida shakllangan bo'lsa-da, gap mazmuni saqlanib, predikat kesimlik shaklinigina yo'qotayapti. Bu qurilma esa ustama predikatsiya tarzida asosiy predikatning faqat bitta argumenti bo'lib

<sup>60</sup> Inoyatov S.B. O'zbek tilida predikativ munosabat: Filol.fanl.nomz. ...diss. avtoref. –T., 1999. –B. 11; Qiyoslang: Jacobs R. English Syntax. A Grammar for English Language Professionals. Oxford, 1993. –P. 185.

qolyapti. Sifatdosh orqali ifodalanayotgan, harakatning aktiv belgisini anglatuvchi *destroyed* aniqllovchisi yoyiq tusda bo‘lib, o‘z kengaytiruvchisi sanalgan *the* leksemasini boshqaryapti va bir butun holda church leksemasining argumenti (sifatlovchi-aniqllovchi) bo‘lib xizmat qilayapti. Demak, *destroyed* sifatlovchisi argumentning argumenti tarzida gap bo‘laklarining darajali munosabatini ta’minlash uchun asos bo‘layapti:



Bu yerda: S – subyekt (predmet)

deg – daraja

Pv – predikat (kesimlik shaklini yo‘qotgan)

Pvk – predikat (kesimlik shaklida)

*I was dazzled by snow glittering on the tree tops* (A.C p-152) gapida *I* (ega), *by snow* (to‘ldiruvchi) ifodalari predikat funksiyasidagi qurilma *glittering on the tree tops* ifodasiga tobelanib kelyapti. Gap predikati o‘z tarkibida ichki bog‘lanishga ega bo‘lib, uning tayanch markazi *on the tree tops* leksemasi belgi uzv “*glittering*” va predmet uzv *tree* leksemalari vositasida kengaygan.

Frazeologik birlik orqali ifodalangan belgi uzv predmetning belgi valentligini namoyon qilish uchun ishlatilyapti. V.P.Jukovning ta’kidlashicha, butunning qismlari (ya’ni so‘zlar –N.O.) mazmuniy faolligini yo‘qotishi natijasida frazeologizmlar shakllanadi.<sup>61</sup>

Frazeologizmlar erkin olmoshlanish imkoniyatiga ega bo‘lmagan turg‘un birikmalar hisoblanadi. Eng muhimi, ular til birligi sifatida nutqqa tayyor holda olib kiriladi va shu jihati bilan so‘z birikmasi yoki har qanday aniqllovchili qurilmalardan ham farqlanadi.

Bularning jami birgalikda gap predikati sifatida yaxlit holda boshqa argumentlar orqali kengaymoqda. Uning mazmuniy chizmasi quydagicha:

<sup>61</sup> Jukov V.P. Semantika frazeologicheskix oborotov. M.: -1978. –str. 6.

S – subyekt (predmet)

Ak – belgi

S + S + Ak + S + quan

quan – miqdor

*The letter from her sister reassured her (A.P. p-45).* Ushbu gapda *from her sister* birligi *reassured* predikatning argumenti hisoblanadi.

Argumentning o‘zi ham o‘z kengaytiruvchisiga ega. Argumentning argumenti bo‘lgan *her* leksemasi “belgi” arxisemali elementlar sirasiga kiradi.

Yuqoridagi belgi ifodalovchi leksemalar (yoki frazemalar)dan farqli holda, ushbu olmosh orqali ifodalangan belgi ancha umumiy xarakterga ega. Chunki, olmoshlar ma’no ifodasi nuqtai nazaridan boshqa mustaqil so‘z turkumlaridan keskin farqlanadi. Ot, sifat, son, fe’l turkumidagi so‘zlar predmet, belgi, miqdor, harakat tushunchalari haqidagi aniq ma’noni anglatrsa, olmoshlar bunday ma’noga ishora qiladi. Shunga ko‘ra, ot sifat, son, fe’l, ravish turkumidagi so‘zlar birlamchi, aniq nomlar, olmosh ifoda etgan nom ikkilamchi, umumiy nom hisoblanadi.<sup>62</sup>

Bu yerda ifodalanayotgan belgi nomi ham ishoraviy, mavhum xususiyatga ega. Belgining aniq, real mazmuni ma’lum situatsiyada namoyon bo‘ladi. Biroq *her* leksemasi sister predikatiga xos belgi valentligini yuzaga chiqaryapti va ikkisi belgi-predmet (Ak+s) tipidagi yaxlit butunlik sifatida predikat argumenti bo‘lib kelyapti.

Keltirilgan gapning mazmuniy strukturasini uning tarkibidagi sintaksemlar tahlilida ham ko‘rsatish mumkin.<sup>63</sup>

the letter – substansional agentiv sintaksema;

from sister – substansional manba sintaksema;

her – pronominal kvalifikativ sintaksema;

reassured – protsessual faol sintaksema;

her – substansional obyekt sintaksema.

<sup>62</sup> Iriskulov M., Kuldashv A. Theoretical Grammar of the English Language. –T., 2008.

<sup>63</sup> Muxin A.M. Variantnost sintaksicheskix yedinit. SPb., 1995.

### 3.2. MIQDOR UZVLI ARGUMENTLAR


Miqdor anglatuvchi uzvlar o'zi bog'lanayotgan predmetning miqdor valentligini to'ldirish uchun xizmat qiladi. Miqdor bildiruvchi uzvlarning umumiy yoki aniq miqdor anglatishi ko'p jihatdan ularning substansional shakliy tomoniga aloqador.

*The fourth and fifth brothers ... walked away together (Galsworthy p-87)* gapida *walked away* predikatining argumentlari *together* (hol) va *the fourth and fifth brothers* (ega) ifodalari sanaladi. Miqdor uzvli qurilmalarning uyushtiruvchi markazi *brothers* leksemasi predmet uzvning miqdor va belgi valentligi *fourth* va *fifth* so'zlari orqali to'ldirilyapti. Aniqlovchi pozitsiyasidagi son bilan ifodalangan miqdor anglatuvchi *fourth* leksemasi predmetning (*brothers* leksemasining) argumenti sifatida o'zi bog'langan leksemaning funksiyasiga o'tadi va u bilan birgalikda, *walked away* leksemasining kengaytiruvchisi sanaladi. Bu yerda predmetning aniq miqdori yuzaga chiqyapti va uyushqlik munosabatidagi aniqlovchilar kvantativ sintaksemalarni hosil qilmoqdalar.

*A group of merchants were invited to the king's palace (S.B. p-68).*


Ushbu gapda predikat *were invited* ifodasi *to the palace* argumentlarini boshqarib kelyapti, argumentlar predikat (harakat)ning obyekt va o'rin valentligini to'ldirishga xizmat qilyaptilar. Birinchisi – to'ldiruvchi pozitsiyasidagi argument bir necha mazmuniy uzvlarning birikuvidan iborat. Uyushtiruvchi nuqta predmet ifodalovchi *merchants* leksemasi bo'lib, uning belgi valentligi yoyiq tUSDagi sifatdosh bilan yuzaga chiqyapti, miqdor valentligi *a group of* ifodasi orqali to'ldirilyapti. Belgi valentligini to'ldiruvchi sifatdosh oborot va u bog'lanayotgan predmet *a group of merchants* tipidagi sodda gap bo'lib, transformatsiya natijasida sifatlovchi-sifatlanmish munosabatli birikmaga aylangan. Aniqlovchining tayanch nuqtasi (sifatdosh) miqdor, subyekt va o'rin uzvlari orqali kengaygan.

Miqdor anglatuvchi a group of leksemasi yuqorida berilgan *fourth* miqdor uzvidan noaniq, mavhum mazmuniy uzvlari quydagicha belgilanadi:



When Jennie was left alone she gave way to her several feelings (Dreiser, p-211). Berilgan gapda miqdor uzvli argument several feelings qurilmasi to'ldiruvchi pozitsiyasida kelyapti. U miqdor+predmet tipida bo'lib, miqdor uzvi predmetning valentligini to'ldirish uchun xizmat qilyapti va predikat argumentiga argument (bo'lakning bo'lagi) sifatida gap bo'laklari o'rtasidagi iyerarxiyani yuzaga chiqaryapti. Qurilmaning uyushtiruvchi markazi bo'lgan *feelings* leksemasi *several* ravishini gap predikati *gave way* frazemasiga bog'lovchi vosita hisoblanadi, ya'ni *several* aniqllovchisi kesimga to'g'ridan-to'g'ri bog'lanmay, bilvosita (*feelings* so'zi orqali) bog'lanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu yerda berilgan miqdor anglatuvchi argument ham mavjud miqdorni yuzaga chiqarish uchun ifodalanyapti.

When they were divested of those two coats, they proceeded to an end table. (A.C.p-97) gapida *were divested* predikatining argumentlari to'ldiruvchi pozitsiyasidagi *those two coats* va ega pozitsiyasidagi *they* qurilmalari bo'lib, ularning ikkisi ham o'z ichida ichki mazmuniy munosabatlarni tashkil etadi. Xususan, ega pozitsiyasidagi qurilmaning uyushtiruvchi markazi *they* leksemasi predmet anglatuvchi uzv sifatida bir necha kengaytiruvchilarga ega. Birinchi predmet uzvi asosida, ikkinchisi miqdor+predmet uzvi orqali shakllangan umumiy belgi uzvi asosida argument yoyiq tusga kirgan. *Two coats* kengaytiruvchisi miqdor bildiruvchi leksemaning predmet anglatuvchi leksemaga, shuningdek, uning predmetga bog'lanishi uchun of predlogining qo'llanishi natijasida darajali munosabat yuzaga chiqayapti:



*two*

Ko‘rinadiki, miqdor uzv darajali bog‘lanishning eng quyi bosqichida joylashgan va uning gap predikatiga bog‘lanishi bir necha vositalar asosida ta’minlanadi.

*those two coats were divested*

Ushbu gapda ifodalanayotgan sintaksemalar quyidagilar<sup>64</sup>:

*when* – adverbial temporal sintaksema;

*they* – pronominal obyektiv sintaksema;

*were divested* – protsessual passiv sintaksema;

*those* – pronominal demonstrativ sintaksema;

*two* – kvantativ sintaksema;

*of coats* – substansional obyektiv sintaksema.

---

<sup>64</sup> Sintaksemalarni farqlash tamoyillari haqida qarang: Filimonova O.YE. Stativnaya sintaksema v angliyskom predlozhenii. Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. –L., 1978.

### 3.3. PREDMET UZVLI ARGUMENTLAR

Predmet bildiruvchi soʻzlar ikkinchi predmet bildiruvchi soʻzlar bilan aloqaga kirishganda, ular orasida qarashlilik munosabati yuzaga chiqadi, ular birgalikda bir butunlikni hosil qiladi. Qaratuvchi uzv orqali maʼlum narsa yoki hodisaning boshqa narsa yoki hodisaga tegishlilik namoyon boʻladi.

*Diana's hopes ... were now dashed completely to the ground (G. p-69)* gapida predmet uzvli argument sifatida *Diana's hopes* ifodasini keltirish mumkin. Ega pozitsiyasida kelayotgan bu boʻlak predmet+predmet (ot+ot) tipida boʻlib, *hopes* leksemasi oʻziga *Diana's* qaratuvchisini ergashtirish bilan birga *were dashed* predikati uchun yaxlit bir argument vazifasini bajaryapti. Qaratuvchi esa qaralmishning kengaytiruvchisi tarzida xizmat qilyapti va gap boʻlaklarining darajali munosabati yuzaga chiqyapti:

Were dashed

hopes                      now                      completely                      to the ground

Diana's


Koʻrinadiki, predikat (kesim)ga nisbatan qaralmish funksiyasidagi *hopes* (ega) leksemasi xuddi *now* (payt holi), *completely* (ravish holi) leksemalari singari argument sifatida uning kengaytiruvchisi boʻlib, qaratuvchi uzv boʻlakning boʻlagi pozitsiyasida eng quyi pogʻonada turibdi.

*His companions, who were startled and wondering, drew closer to him (Dreiser, p-117).*

Ushbu gapning predikati *drew* leksemasining argumentlari *companions* (ega), *startled* and *wondering* (hol), *who* birliklari boʻlib, *who were startled and wondering* qurilmasi oʻz ichki bogʻlanishlari bilan kengaygan. Dastlab bu birikma *His companions wondered* shaklidagi ega-kesim munosabatli sodda gap boʻlib, nominalizatsiya transformatsiyasi natijasida ega qaratuvchiga, kesim qaralmishga

aylanyapti. Biroq shaklan o'zgargan bu gapning mazmuni, ya'ni predikatsiya saqlangan. Demak, bu gapda ikki predikatsiya mavjud: *the companions wondered; he startled*. Birinchisi asosiy predikatsiya bo'lib, kesimlik shaklini saqlagan, ikkinchisi ustama predikatsiya sifatida kesimlik shaklini yo'qotgan. Kesimlik shaklini yo'qotgan birlikning qaratuvchi uzvi predmet bildiruvchi leksema orqali ifodalangan.

Gap bo'laklari o'rtasidagi mazmuniy munosabatni quyidagicha belgilashimiz mumkin:



Bunda: S – subyekt (predmet)

P – predikat (kesimlik shaklini yo'qotgan)

inst – instrumentalis (vosita)

Pvk – predikat (kesimlik shaklini saqlagan)

*Mrs. Gerhardt approved her position now (Dreiser, p-206)* gapida *approved* predikatining argumentlari *her position* (to'ldiruvchi), *Gerhardt* (ega). Birinchi argument o'z kengaytiruvchisiga ega bo'lib, o'z ichida ichki bog'lanish hosil qiladi.

Predmet+predmet (olmosh+ot) tipli qaratuvchi+qaralmish munosabatidagi bu qurilmaning tayanch nuqtasi *position* leksemasi *approved* predikati uchun kengaytiruvchi sifatida amal qilgani holda, her predmet anglatuvchi uzv *position* leksemasining kengaytiruvchi argumenti funksiyasini bajaryapti. Ko'rinadiki, predmet anglatuvchi uzvlar ot bilan birga ot o'rnidagi olmoshlar orqali ham shakllanadi va ular ifoda etgan ma'no ma'lum darajada mavhumlashadi:

*Her position – the girl's position*

Predmet uzvning substansional shakli ot, olmoshdan tashqari, son (beshning uchdan biri), otlashgan sifat (mardning ishi), otlashgan sifatdoş (maqtanchoqning to'yi) kabilar orqali yuzaga chiqishi uchraydi:


*Sally hated the idea of borrowing and living on credit. (K.R.K p-46)*

Berilgan gapda predikat hated ifodasi the idea (to'ldiruvchi) qurilmasi orqali kengaymoqda. Bu yerda predikat ham, argument ham nofunktional pozitsiyadagi ichki kengaytiruvchilarga ega:

*idea of borrowing* – tarz+belgi

*living on credit* – predmet+harakat


Predmet uzvli argument substansional shakliga ko'ra otlashgan sifatning sifat+fe'l shaklli qo'shma fe'lga bog'lanishi natijasida hosil bo'lyapti. Ayni shu fe'l harakat nomi shaklida bo'lgan sababli, gap predikatining kengaytiruvchi bo'lagi hisoblanadi. Otlashgan sifat vositasida ifodalangan predmet anglatuvchi uzv esa butun gapga nisbatan mustaqil pozitsiyani egallamay, qurilma (*idea of borrowing*)ning uyushtiruvchi markazi *living on credit* leksemasining tobe bo'lagi, ya'ni argumentning argumenti sifatida xizmat qiladi:




*And on Monday morning, weary, he began the new week's work (W.M. p-29).*

*When she come back found her farther sitting up, grey and worn, in his study (Galsworthy, p-111).*

Aniqllovchining bir turi sifatida e'tirof etilgan izohlovchilar ham predmet anglatuvchi uzvlar tarkibiga kiritiladi. Yuqoridagi gaplarda ham predmet anglatuvchi uzvlar tarkibiga kiritiladi. Yuqoridagi gaplarda ham izohlovchi-izohlanmish munosabatli qurilmalar butun gap uchun yaxlit bitta vaziyatni egallaydi va izohlovchilar boshqa turdagi aniqllovchilar singari bo'lakning bo'lagi pozitsiyasini egallaydi:




*Professor Sommerville practiced what he preached* (A.C p-59) gapida *practiced* predikatining kengaytiruvchilari *what he preached* ifodalari hisoblanadi. Bu yerda ham aniqlovchili qurilma xuddi ega pozitsiyasidagi *Sommerville* leksemasi singari bir butun holda yaxlit pozitsiya (sabab holi pozitsiyasini) egallayapti. Ushbu qurilma o'z tarkibida qator uzvlar munosabatini aks ettiradi: uyushtiruvchi markaz *preached* leksemasi fe'ning harakat nomi shakli vositasida ifodalanib, o'ziga predmet, o'rin, tarz uzvlari orqali shakllangan leksemalarni ergashtirmoqda va ayni shu uzvlar uning kengaytiruvchilari sanaladi:



*Professor Sommerville* qaratuvchisi o'z ichida izohlovchi-izohlanmish munosabatli bog'lanishni ham hosil qilgan. Demak, *Sommerville* leksemasi professor leksemasining izohlanmishi, (hokim bo'lak) tayanch nuqtasi bo'lishi bilan birga, *practiced* leksemasining argumenti sifatida xizmat qiladi. O'z kengaytiruvchi argumentlarining barchasini ergashtirgan uyushtiruvchi markaz *practiced* predikatining argumenti vazifasini bajaryapti. Bundan *professor* leksemasi argumentining argumenti sanalgan *Sommerville* leksemasi uchun kengaytiruvchi argument ekanligi anglashiladi va gap bo'laklarining iyerarxik munosabati chuqurlashadi.

Ushbu gapning mazmuniy uzvlari quyidagicha belgilanadi:



Bu yerda: S – subyekt

l'k – o'rin

sit – tarz

Pv – predikat (kesimlik shaklini yo'qotgan)

Pvk – predikat (kesimlik shaklini saqlagan)


Ko‘rinadiki, yoyiq tUSDagi qurilmalar bir necha uzvlardan tashkil topgan holda gapning bitta pozitsiyasini egallashi mumkin ekan.

### 3.4. O'RIN UZVLI ARGUMENTLAR

Ma'lumki, o'rin uzvining substansional ma'nosi o'rin arxisemasi bilan umumiylikni hosil qiladi. Biroq bu arxisema invariant sifatida bir qancha kichik semalarni (variantlarni) o'z ichida birlashtiradi: chiqish o'rni, yo'nalish o'rni, bajarilish o'rni va boshqalar. Bu semalar o'rin uzvining harakt bilan aloqadorligini ta'minlaydi va gapda hol pozitsiyasini egallaydi.

Bir qator sifatlar o'rin va paytga munosabat bildirib keladi: *morning, early, late, former, nearly, closer, etc.*

Ko'rinadiki, o'rin uzvining substansional shakli o'rniga munosabat anglatuvchi sifatlardan iborat bo'lishi mumkin. Masalan: *Lemonade from ice-box is always very cold* gapidagi aniqlovchi *from ice-box* o'ringa munosabat bildiruvchi sifat bo'lib, u *Lemonade* leksemasining sifatlovchisi bo'lmoqda. Mazmunij jihatdan yondashsak, sifatlovchining makon, joy bilan taalluqliligi muhim bo'ladi. Bu gapda *very cold* predikati o'rin holi pozitsiyasidagi *from ice-box* va ega pozitsiyasidagi *Lemonade* birliklari bilan kengaygan. Aniqlovchili qurilma o'rin+predmet uzvlari orqali shakllanyapti. Sifatlovchi mavqeini egallagan o'rin uzvi butun gap uchun muayyan mavqeni egallamay, aniqlanmish (*from ice-box*)ning kengaytiruvchisi sanaladi va bo'lakning bo'lagi sifatida gap bo'laklari o'rtasidagi darajali munosabatni yuzaga chiqaradi:



Bunda:


lok – o'rin

S – subyekt

Pvk – predikat (kesimlik shaklini saqlagan).

*Then Oskey approached the nearest fence in the outer yard* (H.G. p-39) gapiga e'tibor qiling. Bunda *approached* predikatining argumentlari sifatida *Oskey* (ega), *then* (payt holi) ifodalarini ko'rsatish mumkin. *In the outer yard*

qurilmasi o'z doirasida bir necha bog'lanishlarga ega: *his yard* qaratuvchi-qaralmish (predmet+o'rin); *outer yard* sifatlovchi-sifatlanmish (o'rin+o'rin). Gapdagi *his* va *outer* leksemalari argument (*yard*)ning argumentlari sanalib, butun gapga nisbatan mustaqil mavqeni egallay olmaydi, ya'ni bo'lakning bo'lagi sifatida *yard* leksemasiga ergashib keladi. Tayanch nuqta *fence* so'zi esa asosiy predikatga tobelanadi:



Bu yerda:

S – subyekt (predmet)

Lok – o'rin

Sit – tarz

Pvk – predikat (kesimlik shaklini saqlagan)

### 3.5. PAYT UZVLI ARGUMENTLAR

Moddaning muayyan zamon va makon bilan aloqadorligi inson ongidan tashqaridagi obyektiv jarayon bo'lib, bu obyektiv jarayonni inson sezgi organlari orqali ongda aks ettiradi.

Inson ongida aks etuvchi moddaning zamonga munosabati zamon (temporal) vaziyati sanaladi.<sup>65</sup>

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, zamon vaziyati ma'lum lisoniy vositalar yordamida ifodalanganligi tufayli, u grammatikadagi zamon shakllari semantikasining asosi sanaladi.<sup>66</sup>

Yuqorida *summer, winter, morning, late, former* singarilar paytga munosabat bildiruvchi sifatlar ekanligi qayd etilib o'tildi.

Demak, mazmunan paytga taaluqli bo'lgan sifatlar gapda funksional jihatdan aniqlovchi pozitsiyasini egallaydi.

*Pete is going to come back with evening train* (A.P. p-197 )gapida *is going* predikatining kengaytiruvchi argumenti *evening train* birikmasi bo'lib, tayanch nuqta poyezdda leksemasi *evening* leksemasi orqali kengaygan va yaxlit holda to'ldiruvchi mavqeini egallamoqda. Birikmaning sifatlovchisi paytga aloqadorlik xususiyatiga ega bo'lgan sifat ekanligi sababli, substansional shakli ot bo'lgan so'zga bog'lanyapti: payt+predmet.

Payt, zamon ma'nosini ifodalovchi leksema bo'lakning bo'lagi pozitsiyasida kelib, gap bo'laklari o'rtasidagi iyerarxiyani ta'minlaydi.

  
*Evening train to come back*


*In the light of after events one cannot but symphonize with them* (A.C. p-264). Berilgan gapda *cannot but symphonize* predikati *one* (ega) va *after events* (to'ldiruvchi) argumentlari bilan kengaygan. O'sha kungi *after events* qurilmasi bir necha mazmuniy uzvlar vositasida yoyiq tusga kirgan: payt, predmet, harakat.

<sup>65</sup> Bondarko A.V. i dr. Teoriya funktsionalnoy grammatiki. Temporalnost. Leningrad. -1990. Str.5.

<sup>66</sup> Khaimovich B.S. Rogovskaya B.I. Course in English Grammar. –M., 1963. –p. 73; Buranov DJ. Srovnitel'naya tipologiya angliyskogo i tyurkskix yazikov. M., 1983.

Qurilmaning uyushtiruvchi markazi *symphonize* leksemasining argumenti *events* leksemasi *after* payt anglatuvchi uzv yordamida kengayapti. *After* va *events* leksemalari aniqlovchi-aniqlanmish munosabatidagi sifat+ot (sifatlovchi-sifatlanmish) tipidagi birikma bo'lib, bu qurilmada sifat otning payt valentligini, ikkisi yaxlit holda *cannot but symphonize* leksemasi (harakat nomi)ning obyekt valentligini to'ldirish uchun xizmat qilyapti.

Bu gapda ham payt anglatuvchi argument gap bo'laklarining darajali munosabatini yuzaga chiqarmoqda:



Bu yerda:

Pron – olmosh


Adj – sifat

N – ot

v – fe'l (harakat nomi)

vf – fe'l-kesim

Mazmunij jihatdan esa quyidagicha belgilaymiz:



S – subyekt (predmet)

Temp – payt

Pv – predikat (kesimlik shaklini yo'qotgan)

Pvk – predikat (kesimlik shaklini saqlagan)


### 3.6. KO'RSATUVCHI UZVLI ARGUMENTLAR

Shaxs, predmet yoki belgini ko'rsatish, ta'kidlash uchun ishlatiladigan so'zlar ko'rsatish olmoshlari orqali ifodalanadi. Ilmiy grammatikalarda ko'rsatish olmoshlari uch guruhga ajratiladi: ot o'rnida qo'llanuvchi, sifat o'rnida qo'llanuvchi, ravish o'rnida qo'llanuvchi ko'rsatish olmoshlari.

Sifat o'rnida qo'llanib, sifatning grammatik xususiyatlarini o'zida jamlaydigan ko'rsatish olmoshlari sifat xarakteridagi olmoshlar sanaladi. Ayni shu olmoshlar gapda aniqlovchi funksiyasini bajaradi va ko'rsatuvchi uzv hisoblanadi.

*Dougal Todd told those adventures to his children* (A.C. p-216) gapida *those* ko'rsatish olmoshi *adventures* ot leksemasiga tobelanib, uning argumenti hisoblanadi. Sifatlovchi-sifatlanmish munosabatidagi bu birikma olmosh+ot tipida bo'lib, mazmuniy jihatdan ko'rsatuvchi+predmet tarzida shakllanyapti.

*Those adventures* aniqlovchili birikmasi esa gap predikati *told* leksemasiga nisbatan *Dougal Todd* (ega), *to his children* (to'ldiruvchi) ifodalari kabi yaxlit bitta pozitsiyada -to'ldiruvchi vaziyatida keladi va ular kabi argument hisoblanadi, bu ko'rsatuvchi uzvi esa tayanch nuqta bo'lgan *adventures* aniqlanmishining argumenti sanaladi. Demak, sifatlovchi mavqeini egallagan ko'rsatuvchi uzv argumentning argumenti sifatida amal qiladi:



Bu yerda:

deix – ko'rsatuvchi

S – subyekt

Pvk – predikat (kesimlik  
shaklini saqlagan)

Lekin har qanday ko'rsatish olmoshlari ot bilan munosabatga kirishsa, ko'rsatuvchi uzv bo'lavermaydi. Chunonchi, *this*, *these*, *that* kabi olmoshlarda mavhum holda bo'lsa-da, belgi anglatish, bizningcha, muhimroq.

### **III BOB YUZASIDAN QISQACHA XULOSALAR**

1. Aniqllovchili qurilmalarning qaysi mazmuniy uzvlardan tashkil topishini ham o'rganish muhim. Ular belgi, miqdor, predmet, o'rin, payt ko'rsatuvchi uzvli argumentlar bo'lishi mumkin.

2. Argumentning argumenti pozitsiyasidagi aniqllovchi va aniqlanmishning belgi, o'rin, payt, miqdor valentliklarini to'ldirish uchun xizmat qiladi.

3. Atributiv qurilmani tashkil etuvchi har qaysi uzv o'ziga xos ichki guruhlardan iborat bo'ladi va aniqlanmishning "bo'sh o'rin"larini to'ldiruvchi tobe bo'lak sanaladi.

4. Aniqllovchi+aniqlanmish tipidagi har qanday qurilma butun gap uchun yaxlit pozitsiyada bo'lib, gap kesimiga tobelanib keladi.

## UMUMIY XULOSALAR

1. Atributiv tuzilmalarni sistemaviy-struktur o'rganish shu kungacha sintaktik nazariyada mavjud bo'lgan bir qator noaniqliklarni bartaraf etishga yordam beradi. Ana shunday noqis jihatlardan biri gapni shakliy tomondan gap bo'laklari istilohi asosida o'rganish va ularni tasnif qilish asoslaridandir.

2. Tobelik grammatikasi (L.Tenyer) ta'sirida gapning tuzilishi va mazmuniy markazi deb kesimning e'tirof etilishi va gapning sintaktik tuzilishi birikmalari kesimning bo'sh o'rinlarini to'ldirishi (valentliklari) asosida belgilanishi natijasida gapni bo'laklarga ajratishga yangicha yondoshuv vujudga keldi.

Gapning ikki a'zoli struktur markazidan bir a'zoli struktur markazni e'tirof etishga o'tish gap bo'laklarini kesim valentligi asosida belgilashga imkon berdi.

3. Kesimning mazmuniy va grammatik valentliklarini bevosita to'ldirib kelgan bo'laklar gap bo'laklariga bo'linishining ikkinchi bosqichini tashkil etadi.

4. Gapni bo'laklarga ajratishning ikkinchi bosqichida turgan bo'laklarning o'zi bo'sh o'rinlarga ega bo'lib, boshqa bo'laklar bilan kengayib keladi. Bunday bo'laklar birikmali bo'laklar sanalib, kesimga nisbatan yaxlit holda bir sintaktik vaziyatni (pozitsiyani) egallaydi. Shuning uchun gap bo'laklari ichki tuzilishi belgisiga ko'ra sodda, birikmali va murakkab turlarga bo'linadi.

5. Birikmali va murakkab gap bo'laklari ichki bo'linuvchanlik imkoniyatiga ega bo'lishlik belgisiga ko'ra sodda bo'laklar bilan oppozitiv munosabatda bo'lsa ham, o'zaro erkin bog'lanishning mavjud yoki mavjud emasligi bilan zidlanadi. Birikmali gap bo'laklarining ichki a'zolari o'zaro erkin grammatik aloqasi turg'undir. Ular tayyor holda so'zlovchi tomonidan nutqiy jarayondan olib kiriladi.

6. Atributiv birikmali gap bo'laklarining sodda gap bo'laklaridan ajratilishi gap bo'laklarini sintaktik pozitsiya asosida o'rganishni taqozo etadi. Bunga muvofiq gap bo'laklari kesim pozitsiyasidagi predikat talab etgan pozitsiya (rol)ga qarab belgilanadi.

7. Kesimga nisbatan muayyan pozitsiyaga kelgan birikmali gap bo'lagi o'z ichida yana bo'linuvchanlik xususiyatiga ega bo'ladi. Aniqlovchilar hamda

nofunksional to'ldiruvchi, ega hamda hollar ana shunday birikmali bo'laklarning bo'lagi sifatida ajralib chiqadi.

8. Gapning sintaktik tuzilishini kesimning valentligi va unga nisbatan egallagan sintaktik pozitsiyasi nuqtai nazaridan o'rganish gap bo'laklarini bir necha darajaga ajratishga yo'l ochadi. Bu jihatdan aniqlovchilar birikmali bo'laklarning tarkibiy qismi sifatida bo'linishning uchinchi pog'onasida (darajasida) turadi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar:**

### **I. Normativ-huquqiy hujjatlar:**

1.Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o'tkazish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida 24.07.2012 *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon*

2.O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-yil, 9-son, 225-modda), Toshkent sh, 1997-yil, 29-avgust,464-I-son.

3.O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. Magistratura nizomni tasdiqlash haqidagi buyrug'i. O'zbekiston respublikasi Adliya vazirligi idoraviy me'yoriy hujjatlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish boshqarmasi. 2012-yil, 18-dekabr.

### **II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari:**

- 1.Karimov I. A. Istiqlol va ma'naviyat. T. "O'zbekiston" 1994
- 2.Karimov I. A. Ma'naviyat yuksalish yo'lida. T., "O'zbekiston",1998.
- 3.Karimov I. A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T., O'zbekiston, 2000.
4. Karimov I. A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz ma'sulmiz. T., "O'zbekiston", 2001.
- 5.Karimov I.A.Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T., "Ma'naviyat",2008.

### **III. Darslik va ilmiy o'quv qo'llanmalar**

- 1.Abduazizov A.A. Tilshunoslikka kirish I-II. T., 1999.
- 2.Abdullayeva D. Polisubyekтли sintaktik qurilmalarda subyektning ifodalanishi // -O'zbek tili va adabiyoti, 2001, 3-son, 64-bet.
- 3.Artuyunova N.D. Predlojeniye i yego smisl. –M., 2007.
- 4.Artyunova N.D. Funksii opredeleniy v bitiynix predlojeniyax // Russkiy yazik: Tekst kak seloye i komponenti predlojeniya. –M., 1998.
- 5.Ayrim o'zbek tili grammatikalarida miqdor bildiruvchi oz, ko'p, mo'l, kam (talay ham) kabi so'zlar ravish turkumiga kirmasligi qayd etilgan. Qarang: Shoabdurahmonov Sh. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. I qism. T.: O'qituvchi. -1980. 403-bet

6. Bushuy T., Safarov Sh. Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi. T., 2007.
7. Bo‘ronov J.S. Ingliz va o‘zbek tillari qiyosiy grammatikasi. T., 1973.
8. Burlakova V. Contribution of English and American linguists to the Theory of Phrase. M., 1971.
9. B.S. Xrokovskiy. Konsepsiya chlenov predlozheniya v russkom yazikoznanii XIX veka. «Grammaticheskaya konsepsii v yazikoznanii XIX veka» to‘plami, L., 1985, s. 126
10. Bu haqda batafsil ma’lumot olish uchun qarang: Rahimov A. Umumiy tilshunoslik. –Samarqand, 2015
11. Baskakov N.A. Prostoye predlozheniye v sovremennom karakalpakskom yazike. –ISGTY, III. M. 1961, S. 67
12. Benvenist E. Urovni lingvisticheskogo analiza. –V.Kn.; Obshaya lingvistika. M., 1974, S. 133
13. Bu haqda qarang: Abdusamatov A. O‘zbek tilida gap bo‘laklarining noamaliy mavqei masalasi: Filol. Fan.nom. ....dis. avtoref. Samarqand, 1994.
14. Buranov J., Yusupov U., Iriskulov m., Sadikov A. The Grammatical Structure of English, Uzbek and Russian. –T., 1986.
15. Blokh M. A Course in Theoretical English Grammar. –M., 1983.
16. Bu haqda qarang: G‘ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T.: O‘qituvchi. -1987, 103-bet
17. Bogdanov V.V. Semantiko-sintaksicheskaya organizatsiya predlozheniya. L., 1977. –S. 29.
18. Bondarko A.V. i dr. Teoriya funktsionalnoy grammatiki. Temporalnost. Leningrad. -1990. Str.5.
19. Dmitriyev N.K. Detali prostogo predlozheniya. O‘sha to‘plam, S. 28
20. Danes P. Some thoughts on the semantic structure of the sentence // Lingua, V.91., 1997.
21. Dolinina I.B. Uk.soch., s.90.

22. Eggins S. Introduction to systemic Functional Linguistics.
23. Gak V.G. Teoreticheskaya grammatika fransuzskogo yazika. –M., 1988
24. Gʻulomov A., Asqarova M. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. T.: Oʻqituvchi. - 1987, 105-bet
25. Gʻulomov A., Asqarova M. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. T.: Oʻqituvchi. - 1987, 109-bet; Hojiyev A. Lingvistika terminlarining izohli lugʻati. T.: Oʻqituvchi. -1985, 37-bet; Saidova R.X. Predlozheniye v sovremennoye. uzbekskom. literaturnom yazike. AKD. T-1975. –S. 5.
26. Hojiyev A.P. tilshunoslik terminlari izohli lugʻati. T., 2004.
27. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lugʻati. T.: Oʻqituvchi. -1985, 37-bet. va boshq.
28. Hill A. Introduction to Linguistic Structures. New-York, 1988.
29. Ilyish B. The Structure of English. L., 1971. P.221
30. Inoyatov S.B. Oʻzbek tilida predikativ munosabat: Filol.fanl.nomz. ...diss. avtoref. –T., 1999. –B. 11; Qiyoslang: Jacobs R. English Syntax. A Grammar for English Language Professionals. Oxford, 1993. –P. 185.
31. Iriskulov M., Kuldashv A. Theoretical Grammar of the English Language. –T., 2008.
32. Invariant-variantlilik haqida qarang: Irtenyeva N.F. Imennaya fraza s predimennimi atributami v sovremennom angliyskom yazike. Avtoref. diss. ... dokt. filol. nauk. M., 1977; Nabiyeva D.A. Oʻzbek tilida lisoniy birliklarning invariant-variant munosabati (fonologik sath). Filol.fanl.nomz. ... diss. Avtoref. – T., -1998.
33. Ivanova I.P., Burlakova V.V., Pochensov G.G. Teoreticheskaya grammatika angliyskogo yazika. M., 1981. –S. 125
34. Jespersen O. Essentials of English Grammar. –London, 1933; Curme G.O. A Grammar of the English Language. P.3. –Boston, 1933.
35. Jigadlo V.N., Ivanova I.P., Iofik L.L. Sovremenniy angliyskiy yazik. Teoreticheskii kurs grammatiki. –M. 1956.
36. Jukov V.P. Semantika frazeologicheskix oborotov. M.: -1978. –str. 6.

- 37.Kaul M.R. Sistema substantivnix svobodnix slovosochetaniy v sovremennom angliyskom yazike. AKD. –M. 1980.
- 38.Khaimovich B.S. Rogovskaya B.I. Course in English Grammar. –M., 1963. –p. 73; Buranov DJ. Srovnitel'naya tipologiya angliyskogo i tyurkskix yazikov. M., 1983.
- 39.Lingvisticheskiy ensiklopedicheskiy slovar. M., 1990.
- 40.Latipov Ch.Y. Atributivniye slovosochetaniya s nominativnimi komponentami v sovremennom angliyskom yazike. AKD. –M., 1968.
- 41.Lingvisticheskiy ensiklopedicheskiy slovar. M: Sovetskaya ensiklopediya. -1990, S. 395.
- 42.Loliyev T.P. Predlozheniye i yego grammaticheskiye kategorii. –M., 2007; SHEvyakova V.YE. Sovremenniy angliyskiy yazik. –M., 1980.
- 43.Li Ch., Tompson A. Subject and topic: a new typology of language. In: Subject and topic. New York, 1976.
- 44.Long R. The Sentence and Its Parts. A Grammar of Contemporary English. –Chicago, 1991. P. 317.
- 45.Mahmudov N. Funktsional va nofunktsional to'ldiruvchilar haqida. – O'zbek tili va adabiyoti, 1981, 1-son
- 46.Moskalskaya O.I. Problemi sistemnogo opisaniya sintaksisa. –M., 1981.
- 47.Mahmudov N. O'zbek tilidagi sodda gaplarda semantik va sintaktik assimetriya. T. 1981. –B. 9.
- 48.Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi (sintaksis). Toshkent, O'qituvchi, 1995. 59-bet.
- 49.Muxin A.M. Lingvisticheskiy analiz. Teoreticheskiye i metodologicheskiye problemi. L., 1976;
50. Muxin A.M. Eksperiment i modelirovaniye v lingvistika. Strukturniy sintaksis predlozheniya. SPB., 2004.
51. Muxin A.M. Funktsionalniy sintaksis. SPb., 1999.
52. Muxin A.M. Variantnost sintaksicheskix yedinit. SPb., 1995.
- 53.Peshkovskiy A.M. Russkiy sintaksis v nauchnom osveshenii. M., 2008.

54. Quirk R., Greenbaum S., Leech G., Svartvik J. A Comprehensive Grammar of the English Language. –London, 2001. Lewis M. The English Verb. – London, 1998; Barxudarov L.S., Shtelling D.A. Grammatika angliyskogo yazika. – M., 1973.
55. Qarang: F.Nurmonov. Gap haqidagi sintaktik nazariyalar
56. Qarang: Slyusareva N.A. Problemi funktsionalnogo sintaksisa sovremennogo angliyskogo yazika. M., 1981. S.69.
57. Qarang: Gak V.G. Teoreticheskaya grammatik fransuzskogo yazika. Sintaksis. M.: -1981, str.144.
58. Radford A. Syntax. A Minimalist Introduction. –Cambridge, 2002.
59. Raspopov I.P. O tak nazivayemoye semanticheskoy strukture predlojeniya. –V.Y. 1981. №4. –S. 26.
60. Sossyur F.de. Kurs obshey lingvistiki. M., 2004.
61. Solnsev V.M. Grammaticheskaya struktura i aktualnoye chleneniye predlojeniya (vmesto predisloviya). –Sb; «Vostochnogo yazikoznaniye. Grammaticheskoye i aktualnoye chleneniye predlojeniya». M. -1984. S. 7.
62. Safarov Sh. Prinsipi sistemno-semanticheskogo analiza sintaksicheskix yedinit. –Toshkent, 1983.
63. Susov I.P. Semanticheskaya struktura predlojeniya Tula. 1973. S. 16.
64. Smirnitkiy A.I. Sintaksis angliyskogo yazika. –M., 1957.
65. Sistemniy analiz predlojeniya. M., 1977. –S. 158.
66. Sintaksemlarni farqlash tamoyillari haqida qarang: Filimonova O.YE. Stativnaya sintaksema v angliyskom predlojenii. Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. –L., 1978.
67. SHerba L.V. Izbranniye raboti po yazikoznaniyu i fonetike. M. 1958. S. 94.
68. Sh.Rahmatullayev. Nutqimiz ko‘rki. Toshkent, 1970, 18-bet.
69. Shmeleva T.V. Propozitsiya i yeyo reprezentatsiya v predlojenii // Problemi teorii i istorii russkogo yazika. Vip. 3. M. 1980, -S. 31.
70. Tenyer L. Osnovi strukturnogo sintaksisa. Str. 17.

71. Tenyer L. Osnovi strukturnogo sintaksisa. –M;1988. s. 158.
  72. Tenyer A. Yuqoridagi asar. 168-bet.
  - 73.Transformatsiya xususida qarang: Chomsky H. The Science of Language. Cambridge, 2012.
  74. Veikhman G.A. A new look at English Syntax. M., 2002. P. 122.
  - 75.Yokoyama O. Discourse and word order. –Amsterdam, 199653.Yusupov U. Contrastive Linguistics of the English and Uzbek Languages. T., 2013. –P. 146.
  - 76.Yusupov U. Ingliz tili grammatikasidan universal qo'llanma. T., 2011.
  - 77.Zolotova G.A. Kommunikativniye aspekti russkogo sintaksisa. M. 1982.
- S. 27

#### **IV. Badiiy adabiyotlar**

1. Agatha Christie “Sleeping Murder” UK., 1976.
2. Abrahams Peter “Down the Rabbit Hole” UK., 2006.
3. Charlotte Bronte “Smith, Elder and Company” UK., 1847.
4. Charles Dickens “Oliver Twist” USA., 2008.
5. Dymphna Cusack “Australian Sun Books” London, 1976
6. Erich Segal “Love story”GB., 1970.
7. Herbert Ernest Bates “The darling Buds of May” L., 1958.
8. Henry Green “Loving” UK., 1945.
9. John Boynton Priestley “The Good Companions” UK., 1929
- 10.John Galsworthy “A Modern Comedy” A., 2002.
- 11.John Galsworthy “A White Monkey” A., 2002.
- 12.Kipling Rudyard Kingling “Debits and Credits” L., 1926.
- 13.Oliver Henry “Road of Destiny” USA., 1917.
- 14.Robert Louis Stevenson “Doctor Jekyll and Mr Hyde” L., 1992.
- 15.Stone Robert “Dog soldiers” UK., 1974.
- 16.Stan Barstow “A king of Loving” UK., 1960.
- 17.Theodore Dreiser “Sister Carrie” USA., 1900.
- 18.William Sonerset Maugham “The Moon and Sixpence” UK., 1917.

## ILOVA 1

### Atributiv tuzilmalarning qo'llanilish koeffitsiyenti

| <b>№</b> | <b>Sintaksema</b>           | <b>soni</b> | <b>foizi</b> |
|----------|-----------------------------|-------------|--------------|
| 1        | Belgi uzvli argument        | 2640        | 52,8%        |
| 2        | Miqdor uzvli argument       | 700         | 14%          |
| 3        | Predmet uzvli argument      | 380         | 7,6%         |
| 4        | O`rin uzvli argument        | 450         | 9%           |
| 5        | Payt uzvli argument         | 370         | 7,4%         |
| 6        | Ko`rsatuvchi uzvli argument | 460         | 9,2%         |
|          | Jami:                       | 5000        | 100%         |

## ILOVA 2

### Atributiv tuzilmalarning uslublarda ishlatilish darajasi

|                     |      |       |
|---------------------|------|-------|
| Badiiy uslubda      | 2750 | 55%   |
| Publisistik uslubda | 1400 | 28%   |
| Ilmiy uslubda       | 540  | 10,8% |
| Rasmiy uslubda      | 310  | 6,2%  |
| Jami:               | 5000 | 100%  |


## ILOVA 2

### Atributiv tuzilmalarning paradigmatic qatori


| Sintaksema                  | Misollar                                                                              | Variant                                      |
|-----------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------|
| Belgi uzvli argument        | <i>Meanwhile she was the <u>gayest</u> and <u>most admired</u> woman (J.P. p-112)</i> | ... <u>attractive</u> woman                  |
| miqdor uzvli argument       | <i><u>A group of merchants</u> were invited to the king's palace (S.B. p-68).</i>     | <u>A lot of</u> merchants...                 |
| predmet uzvli argument)     | <i>And on Monday morning, weary, he began the new <u>week's work</u> (W.M. p-29).</i> | ... <u>month's</u> work                      |
| o`rin uzvli argument        | <i>Then Oskey approached the nearest fence in <u>the outer yard</u> (H.G. p-39)</i>   | ... <u>inner</u> yard                        |
| payt uzvli argument         | <i>Pete is going to come back with <u>evening train</u> (A.P. p-197 ).</i>            | ...train <u>which comes in the evening</u>   |
| ko`rsatuvchi uzvli argument | <i>Dougal Todd told <u>those adventures</u> to his children (A.C. p-216).</i>         | ...adventures <u>when happened that time</u> |

### ILOVA 3


Shartli belgilar va qisqartmalar:



- **Yadroviy predikativ bog`lanish**



- **Subordinativ bog`lanish**



- **Kordinativ bog`lanish**



- **Appositiv bog`lanish**



- **Noyadroviy bog`lanish**

**NP1**- yadroviy predikatsiya etiluvchi

**NP2**- yadroviy predikatsiya etuvchi

**D**- tobe bo`lak

**P**- noyadroviy predikatsiya etuvchi

**HD**- uyushiq argument